

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

**Z.M.BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ
TA’LIMI KAFEDRASI**

Qo‘lyozma xuquqida

SHERALI JO'RAYEV
**MILLIY G'OYA, MILLIY MAFKURA IJTIMOIIY SIYOSIY VA
MILLIY BAG'RIKENRLIK OMILI**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar:

N. Alimova

ANDIJON – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
--------------------	----------

I BOB. Milliy g'oya-jamiatda milliy xavfsizlik, barqarorlik tinchlik, millatlararo totuvlikni ta'minlash garovi sifatida.

1.1 Milliy g'oya – mohiyat va talqin.....	9
---	---

1.2 Milliy xavfsizlikni ta'minlashda milliy g'oyaning o'rni va ahamiyati	15
--	----

II BOB. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti va milliy xavfsizligining ma'naviy mafkuraviy asoslari.

2.1 Mustaqillik ma'naviy va mafkuraviy muammolar hamda ularning yechimi....	21
---	----

2.2 O'zbekistonning ichki xavfsizligini ta'minlashning ma'naviy mafkuraviy asoslari.....	27
--	----

III BOB. O'zbekistonning milliy xavfsizligiga tahdidlar; ularning siyosiy, mafkuraviy va amaliy ko'rinishlari.

3.1. Mintaqaviy xavfsizlik va global xavfsizlikka erishish yullari.....	36
---	----

3.2. O'zbekistonda milliy xavfsizlik va siyosiy barqarorlikni ta'minlashda milliy mafkuraning ahamiyati.....	42
--	----

XULOSA.....	54
--------------------	-----------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	59
---------------------------------------	-----------

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 22 yil to'ldi. Bu tarix qisqa vaqt mamlakatimiz xayotida jiddiy o'zgarishlar davri bo'ldi. Ayniqsa, Respublikamizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan muhim tadbirlar, hukumatimizning halqaro munosabatlar doirasida olib borayotgan tinchliksevar siyosati samarali ko'zga yaqqol tashlanadi.

Ayni vaqtda umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mobaynida turli muammo va ziddiyatlar vujudga kelib global miqyosida kuchayib, keskin tus olib bormoqda. Bu esa o'z navbatda yer yuzidagi barcha davlatlar va halqlarning o'zaro hamkorligi va hamjihatligi asosida ularni bor kuch va imkoniyatlarini ana shu g'oyat dolzarb masalalar yechimi yo'lida birlashtirish va safarbar etishni o'tkir zaruratga aylantirmoqda. Bu borada hech shubhasiz, eng nufuzli va yetakchi xalqaro tashkilot Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) ning o'rni va ahamiyati xar qachongidan ham ortib bormoqda.

BMT bosh kotibi Pan Gi Mun 2010 yil aprel oyida mamlakatimizga tashrif buyurib, yurtimizda bu borada amalga oshirilayotgan katta miqyosdagi ishlar bilan yaqindan tanishdi va ularga yuksak baho berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov BMT bosh kotibi Pan Gi Munning taklifiga binoan 2010 yil 20 sentabr kuni BMT Bosh Assambeliyasining ming yillik rivojlanish maqsadlari bo'yicha oliy darajadagi yalpi majlisida ishtirok etib, mazkur sammitda nutq so'zladi. Davlatimiz rahbari o'z nutqida mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlar, O'zbekistonning BMT bilan hamkorligi, Markaziy Osiyodagi bugungi jarayonlar, mintaqaviy havfsizlik va ekologiya muammolari, Afg'oniston mojarosi va uni hal etish yo'llari haqida alohida to'xtaldi¹.

Shu nuqtai nazardan: Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida mamlakatimizda mustaqillik milliy xavfsizlikni va barqarorlikni ta'minlashda ma'naviy omillar ustuvor vazifalardan ekanligiga e'tiborni qaratib, quyidagi konseptual g'oyani ilgari suradi. "Oldin odamlarga moddiy boylik berish so'nga ma'naviyat to'g'risida o'ylash kerak deydiganlar haq bo'lmasa kerak. Ma'naviyat-insonning, halqning jamiyat, davlatning kuch qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt – saodat bo'lmaydi..."²

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan bu konseptual g'oyaning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki birinchidan, bu bilan sobiq sho'rolar davrida ma'naviyatni rivojlantirishga

¹ Хамкорлик, тараққиёт ва хавфсизликнинг таъминлаш йўлида // Халқ сўзи, 2010 й. 21 сентябр.

² Каримов И.А. Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Тошкент, Ўзбекистон 1993 й. 74 бет.

uchinchi darajali omil sifatida qaralishining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy inqirozining sabablarini ham ko'rsatib boradi. Ikkinchidan, ma'naviyatni rivojlantirmasdan, shaxsning ma'naviy ruhiyatini o'zgartirmasdan turib, milliy xavfsizlikni to'la ta'minlab bo'lmashini ilmiy asoslab beradi. Prezidentimizning yana bir muhim konseptual g'oyasi ma'naviy shaxsning eng muhim mezonini va shuning bilan birga uni kamolotga eltuvchi, o'z o'rnini anglatuvchi va o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqartiruvchi ulkan omil ekanligini ilmiy asoslanganligidir.

Mavzuning dolzarbligi: Dunyoda chuqur o'zgarishlar sodir bo'layotgan hozirgi davrda Yer yuzining turli nuqtalarida millatlararo nizolarni keltirib chiqaruvchi ziddiyatlar saqlanib qolmoqda. Ushbu ziddiyatlarni bartaraf qilish, ularning oldini olish kishilik jamiyati tarixiy-tadriijiy rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti bo'lib qolmoqda. Bu amaldagi milliy siyosat modellarining mohiyati, ularning mafkuraviy asoslarini ilmiy-qiyosiy o'rganishni dolzarb qilib qo'yimoqda.

Millatlararo munosabatlarning milliy xavfsizlik ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishga keng ta'sir o'tkaza boshlashi global, mintaqaviy va xududiy siyosatda etnik omil rolining oshishiga olib keldi. Bu hol, davlatning va mintaqaning xavfsizligiga taxdid solish mumkin bo'lgan etnik va millatlararo mojarolar, diniy ekstremizm va terrorizm kabi mojarolar kelib chiqgudek bo'lsa, ularning oldini olish maqsadida mazkur jarayonlarni muntazam ravishda ijtimoiy tahlil etib borishni zarur qilib qo'yadi.

Shunday ekan odamzot uchun hamma zamonlarda ham eng buyuk bo'lib kelgan ma'naviyatning ma'no mazmuni, uning inson va jamiyat hayotida o'rnini va ahamiyati bu murakkab va serqirra tushunchaning nazariy va amaliy tomonlari har tomonlama keng qamrovli fikr va hulosalar orqali tahlil etishi. Ayni paytda istiqbol yillarida yurtimizda milliy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda milliy ma'naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish. Bugungi murakkab globallashuv davrida milliy g'oya va mafkura sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, yosh avlodning qalbi ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish masalalariga mazkur bitiruv malakaviy ishida alohida e'tibor qaratilgan.

BMI ning maqsad va vazifalari: Shuni alohida qayid etish lozimki, Yurtboshimiz nutqlarida har tomonlama asoslab berilgan, tobora dolzarb ahamiyat kasb etib borayotgan masalalar, jumladan, mintaqamizda va butun dunyodagi tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqtisodiyot, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalari rivojini yangi bosqichga ko'tarish va ularni yanada ko'proq inson manfaatlariga yo'lida xizmat qildirish, milliy g'oya va mafkuraviy hamkorlikni yanada rivojlantirish va faollashtirish bularning barchasi

yurtimizda yashayotgan xar bir nisonning birgalikdagi doimiy sa'y-harkatlarni talab etadigan ustuvor vazifalardir. Ularni bizning yurtimizda to'liq va samarali amalga oshirish esa eng avvalo jamiyatimiz a'zolari tomonidan ularning mazmun-mohiyatini teran va chuqur anglab yetishini taqazo etadi. Shunga ko'ra mazkur bitiruv malakaviy ishida milliy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda milliy g'oya va mafkuraning o'rni va ahamiyatini malakatimiz talaba-yoshlari o'rtasida tizimli ravishda har tomonlama chuqur o'rganilishini ta'minlash, shu asosda Milliy mustaqilligimizni mustahkamlash jarayonida mafkuraviy jarayonlarning ahamiyatini tom ma'noda tarixiy ishlarning ma'no-mazmuni, beqiyos ahamiyati, O'zbekistonning jahon miqyosida ortib borayotgan obro'-e'tibori haqida ularga atroficha qo'shimcha ilmiy ma'lumotlar berish maqsadida mazkur bitiruv malakaviy ishi bajarildi.

Bitiruv ishning obekti va pidmeti. Mazkur bitiruv malakaviy ishining obekti milliy g'oya, milliy mafkura ijtimoiy siyosiy va milliy bag'rikenlik omili ekanligini nazariy taxlil qilish hisoblanib, milliy g'oya, milliy mafkura va bag'rikenglik masalalarini nazariy tahlil qilish hisoblanadi. Milliy mafkura milliy g'oya ijtimoiy siyosiy va milliy mag'rikenglik tadqiqotning pridmeti hisoblanadi.

BMI ning ilmiy yangiligi va erishilgan natijalar: Jahonda yalpi tinchlik va taraqqiyotni ta'minlashda halqaro tashkilotlarning roli va ahamiyati beqiyosdir. Mamlaktimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi tomonidan olib borilayotgan tashqi va ichki siyosatning asosiy ustuvor yo'nalishlari, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar buning yaqqol misolidir. Shunday ekan har qanday ijtimoiy-siyosiy hodisa, muqarrar ravishda, jamiyatning g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlariga bevosita yoki bilvosita aloqador bo'ladi. Ularning barchasi jamiyatning siyosiy tizimiga, davlat va jamiyat qurilishiga borib taqaladi. Shu nuqtai nazardan, davlat va jamiyat qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari boshqa sohalarni umumlashtiruvchi hamda konkretlashtiruvchi ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, davlat va jamiyat qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari o'zida ijtimoiy-siyosiy (milliy xavfsizlik, tinchlik, dinlararo bag'rikenglik va boshqalar) munosabatlarni integratsiyalashtirgan va universiallashtirgan tarzda namayon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2006 yil 25 avgustda imzolangan 451-sonli qarorida: "Bugungi kunda amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lami islohatlarning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini atroficha sharhlash va tushuntirish, yurtimizga qarshi qaratilgan g'oyaviy va infarmatsion hurujlar, ularning ortida turgan kuchlarning g'arazli maqsadlarini fosh qilish, odamlarni hushyorlik va ogohlikka dav'at etish, olimlar, siyosatchi va

mautaxssislar, ijodkor ziyolilar ishtirokida joylarda samarali targ'ibot tizimini yo'lga qo'yish"³ ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar muayyan g'oyalar asosida amalga oshadi. Shunga ko'ra, halqimiz va mamlakatimizning bugungi va istiqboldagi taraqqiyotini ta'minlashda, milliy mustaqillikni mustahkamlashda, mustaqillik yillari shakllanib, rivojlanayotgan milliy mafkura muhim o'rin tutadi. "Chunki, mafkura – jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o'zida mujasamlashtiradi. Har qanday inson, tabiiyki, murod-maqsadsiz yashay olmaydi. Binobarish, hayot mavjud ekan, mamlakatlar, davlatlar va ularning manfaatlari bor ekan, ular o'z taraqqiyot yo'lini, ertangi kun ufqlarini o'zining milliy g'oyasi, milliy mafkurasi orqali belgilab olishga intiladi"⁴ Demak, milliy g'oya va mafkurada mamlakatimizda yashayotgan barcha kishilarning asosiy maqsadlari hamda unga erishish yo'llari mujasamlashgan. Yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot barpo etishda kishilarimizning milliy g'oya va mafkurani chuqur o'rganib, o'zlashtirishi g'oyat muhim ahamiyatga ega. Buning uchun mamlakatimizda olib borilayotgan g'oyaviy-mafkuraviy ishlarni taraqqiyotimiz talablariga muvofiq rivojlantirib, xalqimizga milliy g'oya va mafkuraning mazmun-mohiyatini aniq ravshan tushuntirish taqozo etiladi.

Mustaqillik yillari barcha sohalarda bo'lgani kabi, milliy havfsizlikni ta'minlash yo'nalishida ham ulkan ishlar amalga oshirildi. Shunday ekan mazkur bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi shundaki mustaqillik yillarida yurtimizda milliy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash borasida amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning ma'no-mazmuni atroflicha tadqiq qilinishi va talaba-yoshlarga mazkur yo'nalishda tushunchalar berishda foydalanish amaliy natijalar berishi hisoblanadi.

BMI ning amaliy ahamiyati: Buguni kunda jamiyatimiz oldida turgan ezgu maqsadlarni to'la ro'yobga chiqarish uchun xalqimizning milliy taraqqiyot mafkurasini chuqur o'rganib o'zgartirish va undagi g'oyalarga nisbatan mustahkam ishonch-e'tiqodni shakllantirish taqozo etiladi.

G'oyaviy-mafkuraviy sohada erishilgan yutuqlarimizni mustahkamlab, yangi bosqichlarda milliy havfsizlikni mustahkamlashni tizimli tartibda izchil rivojlantirish va bu boradagi vazifalarni ijtimoiy taraqqiyotimizning asosiy tamoyillari, nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy yo'l yo'riqlariga muvofiq samarali hal qilish, milliy taraqqiyot g'oyasining

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш тўғрисида"ги қарори. // "Халқ сўзи", 2006 йил 26 август.

⁴ И.Каримов. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд, Т., "Ўзбекистон", 2000, 490-бет.

davlatimiz va jamiyatimiz qurilishiga oid ustuvor masalalarning atroficha yoritilganligi mazkur ishimizning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, 3-bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1.1. Milliy g'oya - mohiyat va talqin

G'oya Falsafaviy tafakkur doirasida shakllangan nafaqat eng qadimiy, balki mazmunan keng va xilma-xil ma'nolarda ham talqin etilgan tushunchalardan biridir.

Avvalo, g'oyani bilish jarayonining muayyan natijasi sifatida tushunish keng tarqalganligini ta'kidlash zarur. Shu ma'noda, u o'zi aks ettirayotgan ob'ekt, hodisa, jarayonni o'rganish natijasida hosil bo'lgan bilimni ixcham va umumlashtirilgan holda ifoda etadi. Bunda, bir tomondan, hayotiy-amaliy faoliyat davomida to'plangan tajriba, ikkinchi tomondan, ilmiy bilimlar erishgan natijalarga tayaniladi.

Ilmiy fakt, muammo, faraz, nazariya kabi voqeyilikni aks ettirish, ilmiy bilishning o'ziga xos shakli, yangi bilim va paradigma sifatida chiqadigan g'oyada va bundan keyin qay yo'nalishda o'rganishlari zarurligi haqidagi ko'rsatma, maqsad botiniy tarzda mujassam bo'ladi va shu tufayli u ulkan yo'naltiruvchilik rolini o'taydi.

Ilmiy g'oyaga xos bo'lgan xususiyatlar qarab chiqilganida, g'oyaning tarixiy taraqqiyotdagi o'rni yanada oydinlashadi. Har qanday g'oya kabi ilmiy g'oya ham ulkan yo'naltiruvchilik rolini o'taydi. Masalan, atomlarning mavjudligi haqidagi g'oya asrlar davomida ilmiy izlanishlarning mavjudligi haqidagi uni topish, xususiyatlarni tadqiq etish, duyoning tuzulishidagi o'rnini aniqlashga yo'naltirib keldi natijada atom kashf qilindi. Bu kashfiyot olamning tuzulishi to'g'risidagi tasavvurlarning butunlay o'zgarishiga olib keldi. Ammo ilm-fan taraqqiyotida o'ta salbiy iz qoldirgan g'ayri ilmiy g'oyalar ham bo'lgan.

Ilmiy g'oyalar taraqqiyot omiliga aylanishi uchun ma'lum bir shart-sharoit bo'lishi kerak. Ya'ni, birinchidan jamiyatning umumiy bilim darajasiga yuzaga kelgan yangi bilishni qabul qilishga tayyor bo'lishi va ikkinchidan, uni tekshirib ko'rish, tasdiqlash yoki inkor etish imkoniyati-qurollar, vositalar, moliyaviy resurslarga ega bo'lishi lozim. Aks holda, u ma'lum madaniy-ma'rifiy hodisa sifatida qolib ketadi.

Ijtimoiy g'oya ilmiy g'oyaga xos bo'lgan yuqoridagi xususiyatlar bilan bir qatorda ulkan uyushtiruvchilik rolini ham o'taydi. Shu bilan birga ilmiy g'oyalarning jamiyat taraqqiyotidagi

o'zni aksariyat hollarda bilvosita bo'lsa, ijtimoiy g'oyalar sotsial jarayonlarga bevosita ta'sir o'tkaza oladi. Ammo ijtimoiy g'oyaga xos bo'lgan yo'naltiruvchilik o'z moxiyatiga ko'ra ijobiy ham, buzg'unchi ham bo'lishi mumkin. "Milliy g'oya millatni, xalqni birlashtirishga qaratilishi kerak. Millatni bo'lib tashlashga asos bo'ladigan g'oya buzg'unchi g'oyadir".⁵

Millatni halokat yoqasiga keltirib qo'ygan buzg'unchi g'oyalar tarixda ko'plab bo'lgan. Har qanday jamiyat yaxlitligini tashkil etsada, u xilma-xil elementlarning birligi sifatida chiqadi.

Jamiyat xilma-xil elementlarning birligi ekan, o'zini muayyan ijtimoiy guruh manfaatlarining yakkayu-yagona ifodachisi deb biladigan, shunga harakat qiladigan kuchlar topilishi tabiiy. Bunday paytda milliy hayotning chigallashuvi, ichki ziddiyatlarning keskinlashuvi yuzaga keladi.

Yuqoridagi xususiyatlarni hisobga oladigan bo'lsam, "ijtimoiy g'oya" va "ijtimoiy mafkura" hamda "Miliy g'oya" va "Milliy mafkura" tushunchalari o'rtasida yaqinlik borligi anglashiladi.

Biroq bu ularni ba'zan uchrab turganidek sinonim tushunchalar sifatida ishlatish uchun asos bo'la olmaydi. Chunki, birinchidan, "ideologiya" g'oya haqidagi ta'limot, boshqacha aytganda, "g'oyalar tizimi" ma'nosini anglatadi. Biz "ideologiya"ning sinonimi sifatida qo'llayotgan "mafkura" bilan "g'oya" so'zi o'rtasida bunday o'zak birligi yo'q.

Bunga aniq ishora bo'lmasada, mafkura ham g'oyaviy qarashlar tizimini ifodalab kelishini unutmazlik lozim. Demak, mafkura bir butun qarashlar, g'oyalar tizimi ekani, u g'oyaga nisbatan ham mazmunan ham, hajman kengroq tushuncha sifatida namayon bo'ladi.

Ikkinchidan, g'oyadan farqli ravishda har qanday mafkurada ijtimoiy voqelikni saqlab qolish yoki o'zgartirishga qaratilganlik, ya'ni maqsadlar kompleksi aksariyat hollarda g'oyaga xos bo'lgani kabi botiniy emas, balki zoxiriy tarzda mavjud bo'ladi va uning o'zagini tashkil etadi.

Uchinchidan, har qanday ijtimoiy g'oya ma'lum bir mafkuraviy qarashlar doirasidagina o'zining uyushtiruvchilik va yo'naltiruvchilik salohiyati, jozibadorlik kuchini namoyon qila olishini ham unutmazlik lozim.

To'rtinchidan, har qanday g'oya faqat muayyan mafkura doirasida amalga oshirilgan tarbiya natijasidagina e'tiqodga aylanishi mumkin. "G'oya muayyan maqsad sari safarbar etsa, mafkura bu maqsadni e'tiqodga aylantiradi. G'oyani amalga oshirish yo'lidagi safarbarlik jarayonida har xil muammolar, savollar paydo bo'lishi tabiiy. Ularning barchasiga javob topish jarayonida mafkura shakllanadi. G'oya hayotdagi hamma muammo va masalalarga javob

⁵ Каримов И. А. Ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз. 7-жилд. — Т.: Ўзбекистон: 1999.- 308 б.

bermasligi mumkin. Lekin mafkura hayotiy masalalarga o'z g'oyalar nuqtai nazaridani yondashadi va o'ziga xos javob beradi.⁴

“G'oya” va “mafkura” tushunchalari o'rtasidagi qayd etilgan farqlar ularni yonma-yon, bir xil mazmunda qo'llash o'rinli emasligini ko'rsatadi.

Shunday bo'lsada g'oyaning qisqa vaqt davomida shakllanishi haqidagi fikrlarning bahsli ekanligini mamlakatimizda kechgan jarayonlar ham tasdiqlaydi xususan, mustaqillikning dastlabki yillarida kommunistik mafkuradan qutilish maqsadida ideologizatsiya jarayoni olib borildi. Mazkur jarayon kishilar ongida bo'shliqning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu bo'shlikning xavfi uni eski mafkura eski tuzumni yangilangan shaklda tanlash, diniy-eksremistik kuchlarning kishilar ongini egallashga urinishlar yaqqol namayon bo'la boshladi.

Tabiiyki, bunday holatlarning oldini olish zarur edi.

Ana shunday vaziyatda Prezidentimiz tomonidan milliy xavfsizlikni ta'minlashda jamiyatni ma'naviy yetukligini ta'minlash, ijtimoiy mo'ljallar bilan qurollashtiradigan, kishilar kelajakka ishonch ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan milliy mafkurani shakllantirish kun tartibiga qo'yildi. “Oldimizda turgan eng muhim masala,-deb yozgan edi. I.A.Karimov, - bu –milliy istiqlool mafkurasini yaratish va hayotga tadbiq etishdir”⁵

Ana shundan so'ng uzoq davom etgan bahsli mulohazalar, muxokamalardan so'ng chuqur va tizimli asoslangan milliy istiqlool g'oyasining yaxlit konsepsiyasi yaratildi.

“Millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini anglashni o'zida mujassamlashtirgan, uning etnoijtimoiy birlik sifatidagi tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalaydigan, taraqqiyotiga xizmat qiladigan g'oyaga milliy g'oya” deyiladi.

Milliy g'oya har bir davrda aniq tarixiy mazmun kasb etadi.

Bugun milliy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning ma'naviy omili sifatida jamiyatning barcha qatlamlari, har bir a'zosi uchun birday qadrlil bo'lgan milliy g'oya va milliy mafkurasini izchil hayotga tadbiq etish orqaligina erishish mumkin. Zero Prezidentimiz o'rinli ta'kidlaganlaridek, “Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar”⁶

⁴ Муртазо Қаршибой. Янгиланишдан – буюк ўзгариш сари.-Т.: “Ғофур Ғулом нашриёти”, 2001, 40 б.

⁵ Каримов И.А. Буюк мақсад йўлидан оғишмайлик. // Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд.-Т.: “Ўзбекистон”, 1996,-203 б.

⁶ Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин. //Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз 7-жилд. –Т.: “Ўзбекистон”, 1999, 84 б.

Milliy istiqlol g'oyasi o'zligimizni anglash, birligimizni ta'minlash, mustaqilligimizni mustahkamlashga xizmat qilishi lozim ekan, uni izchil hayotga tadbqiq etish zaruriyati bunga to'sqinlik qilayotgan va tahdid solayotgan omillar oldini olish ehtiyoji bilan ham belgilanadi.

XX asrda ikkita jahon urushini boshdan kechirgan insoniyat so'nggi yillarda turli sabablarga ko'ra yuzaga kelayotgan va o'z oqibatlariga ko'ra jahon urushidan ham xalokatliroq bo'lgan yangidan-yangi mojarolarga duch kelmoqda. Bunday mojarolar unga tortilgan davlatlar hayotini izdan chiqaribgina qolmay, qo'shni xalqlar ruhiyati, turmushi, taraqqiyotiga ham jiddiy va sezilarli salbiy ta'sir o'tkazishi tabiiy, albatta.

XX asrning so'nggi yillarida bunday mojarolar bilan bir qatorda diniy ekstremizm va fundamentalizmdek o'ta xavfli qarashlar tizimi va faoliyat usuli ham tarix sahniga chiqqanini ta'kidlash zarur.

Mamlakatimiz taraqqiyoti, kishilarimiz ongi va ruhiyatiga o'zlarining tor manfaatlaridan kelib chiqqan holda ta'sir ko'rsatishga harakat qiladigan kuchlar, diniy ekstremizm, agressiv millatchilik yoki buyuk davlatchilik shovinizmi shaklidagi g'oyalar mavjud bo'lgan vaziyatda "odam o'z mustaqil fikriga, tayanib yashaydigan hayotiy milliy qadriyatlarga, shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli mafkuralarning bosimiga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi tazyiqlarga bardosh berishi amri mahol"⁷

Shunday ekan, ana shu xavf yo'lida qalqon bo'ladigan, istiqlolni mustahkamlashga qaratilgan, ertangi kunga ishonch hissini tarbiyalamog'i kerak bo'lgan bunyodkor g'oyalar kishilarimiz ongida ustuvor bo'lmog'i lozim. Zero, Prezidentimiz o'rinli ta'kidlaganlaridek "g'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin"⁸

Yuqoridagi mulohazalardan milliy g'oya kishilarimiz ongidan chuqur joy olgan, e'tiqod darajasiga ko'tarilgandagina o'zining o'lkan yaratuvchilik salohiyatini, harakatlantiruvchi kuchini namoyon qila oladi, degan xulosa kelib chiqadi.

Shuni nazarda tutib, I.A. Karimov " Mafkuraning hayotiligi uning xalq talabiga, turmush va tafakkur tarziga nechog'li mos bo'ltshi, eng muhimi, jamiyatning milliy manfaatlarini, orzu intilishlarini qay darajada aks ettirishi bilan o'lchanadi. Faqat shunday mafkuragina hayot va

⁷ Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни ҳ-халқ, миллатни миллат қилишга хизмат этсин. // Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан курамыз. 7-жилд.-Т.: "Ўзбекистон", 1999,-86 б.

⁸ Ўша асар. 88 б.

davr sinovlari sifatida qabul qiladi. Shundagina u zamonaviy quoldan ham ko‘ra kuchli ruhiy-ma’naviy qudrat kasb etadi”-deb yozadi.⁹

Demak, g‘oya faqat keng qamrovli mafkuraviy nazariya va amaliyotning uzviy qismiga aylangandagina jamiyat oldida turgan muammolarni yechimini topishga xizmat qiladi va milliy xavfsizlikni ta’minlashning asosi bo‘la oladi.

⁹ Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир.//Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. 8-жилд.-Т.: 2Ўзбекистон”, 2000, 491 б.

1.2 Milliy xavfsizlikni ta'minlashda milliy g'oyaning o'рни va ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov "Turkiston" gazetasi muxbirining savollariga bergan javoblarida shunday degan edi: "... Shu o'rinda mustaqillik va istiqlol yo'lida birinchi qadam qo'yayotgan davrda yagona oila bo'lib yashayotgan ko'pmillatli halqimizning dolzarb shoiriga aylangan so'zlarni eslatmoqchiman." "Shu aziz Vatan barchamizniki, uning farovon kelajagi va iqboli uchun yashash, kurashish biz uchun eng katta baxtdir".

Ishonchim komilki, barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlikka chorlayotgan bunday shior milliy g'oyamiz va tafakkurimizning asosiy mezoniga aylanib qolsa, nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlarimizni ham asraydigan, ezgu orzularimizni ro'yobga chiqaradigan asos bo'lib xizmat qilar edi.¹⁰

Tarix saboqlaridan xulosa chiqarish vaqti ham keldi. Moddiy qiyinchiliklar og'ir sinov bo'lsada, uni mehnat va sabr-toqat bilan yengish mumkin, albatta. Bu g'oya har bir ota-ona, o'qituvchi, murabbiy, mahalla oqsoqoli va faoli qalbida so'nmas mash'al kabi yonib, yosh avlod uchun aniq va tushunarli bo'lishi kerak va faqat shundagina tinchlik va barqarorlik, ezgu maqsadlar va buyuk kelajakka erishish mumkin bo'ladi.

Yana bir narsani alohida takidlash zarur. Yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga nisbatan rasmiyatchilik bu ishning umuman olib brilmaganidan zararlidir. G'oyaviy bo'shliq bo'lmasligini, kishilar, ayniqsa, yoshlar ongiga o'z xalqining qoni evaziga siyosiy shuxrat qozonishda, boylik ortirishdan ham toymaydigan firqachilik, diniy murosasizlik, millatchilik, separatizm, fashizm, mahalliychilik, jinoiy sheriklik kabi "g'oya va g'oyacha" lar bilan tezda ta'sir qilishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ular o'zlarining bu manfur niyatlarini qanday amalga oshirishini hammamiz 1999 yil 16 fevralda ko'rdik. 90-yillardagi mafkuraviy bo'shliq muhitida tarbiyalangan yoshlarning ayrimlari milliy mustaqilligimiz manfaatlariga zid ish qiluvchilar guruhiga qo'shilib ketishdi. Bunday fojealarning qaytarilmasligi uchun hammamiz bor imkoniyatlarimizdan foydalanishimiz, qo'ldan kelgancha harakat qilishimiz va hamisha ogoh bo'lib yashashimiz lozim.

Yangicha tafakkur tizimidagi evalyutsion usul asosida milliy mafkura va uning o'zagi bo'lgan milliy g'oya yotadi. Shuni eslatib o'tish lozimki, milliy g'oya - bu, faqatgina o'zbek millatining birlashishga chaqiruvchi mavhum shior deb qaramasdan, balki uni yanada kengroq ko'lamda, butun O'zbekiston aholisini qamrab oluvchi, barchani jipslashtiruvchi determinant sifatida olib qarash lozim. Biz bu o'rinda millatidan qat'iy nazar butun O'zbekiston xalqini va

¹⁰ Каримов И.А Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан қурамыз. 7-жилд, Т.: "Ўзбекистон", 1999 й. 302 б.

ularning xar birini shaxsiy, butun jamiyat va davlat miqyosidagi manfaatlarini nazarda tutmoqdamiz. Bu joyda fikrlarimiz, ziddiyatlimi? yo‘q, albatta gap shundaki mafkura sohasida ro‘y berayotgan jarayonlarni xaligacha qutbiy qarama-qarshi baxolashga duch kelamiz. Ayrimlar milliy va madaniy tiklanish xaqida gapirishadi. Boshqalar esa milliy va madaniy inqiroz xaqida gapirishadi. Ilgari mavjud bo‘lgan qudratli xukumron tafakkur iskanjasidan qutilgach, milliy tafakkurimizning xalqning ongi, kayfiyati, ruhiyati, mintaliteti, umuminsoniy va milliy qadriyatlarini hisobga olgan xolda shakllanishi haqida so‘z yurita boshladik. Milliy xavfsizlikning mustaxkam mudofaasi va muxofazasi ta‘minlanganligi mamlakat ichki barqarorligining muhum tayanchidir. Bunday tayanch Respublikamizning iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy tizimlarida ham barqarorlikni ta‘minlay oladi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimizga chet el investitsiyasining kirib kelishiga, iqtisodimizning jaxon andozalari talablari darajasida rivojlanishiga keng imkoniyat ochadi.

Endi davlatimizning ichki xavfsizlagi xususida to‘xtalib o‘taylik. Afsuski, jamiyatimizning osoyishtaligiga muayyan darajada halaqit berishi mumkin bo‘lgan kuchlar qatoriga turli xil ekstremistik kayfiyatdagi oqimlarini ham kiritish mumkin.

Avvalo, ekstremizmga ta‘rif beraylik.

Ekstrmizm-lotinch EXSTREMUS, ya‘ni o‘ta bir yoqlama degan so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, muayyan siyosiy nuqtai nazarga o‘ta bir yoqlama qarash oqibatidagi xatti-xarakatlarni ifodalaydi. Respublikamizda ekstremistik harakatlar asosan bugungi kunda diniy ekstremizm ko‘rinishida nomoyon bo‘lmoqda.

Bundan tashqari bugungi kunda milliy xavfsizlikka raxna soluvchi taxdidlar:

- mintaqaviy mojarolar
- buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik
- etnik va millatlararo ziddiyatlar
- karrupsiya va jinoyatchilik
- mahalliychilik va urug‘ aymog‘chilik munosabatlari
- ekologik muammolar

Ushbu taxdidlarga barham berishning eng asosiy va eng maqbul yo‘li milliy g‘oyani o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Ma‘lumki, fikr asosida g‘oya, g‘oya asosida esa mafkura shakllanadi. Ya‘ni, inson muayyan maqsadni mo‘ljallab, uni amalga oshirishga qat‘iy axd qilsa, bu g‘oya hisoblanadi. G‘oya konkret inson, guruh, millat yoki jamiyatning hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, manfaatlarini ifodalab, ularning ishonch e‘tiqodi va faoliyatiga asos bo‘lsa, mafkuraga aylanadi.

Mafkura turli guruh, toifa va qatlamlardagi kishilarning manfaatlarini ifodalab, ijtimoiy hayoti va faoliyatini tartibga solib, harakatga keltiradi, g'oyalarning ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi. Shuning uchun g'oya maqsad bo'lsa, mafkura uni amalga oshirish usuli vositasidir. Boshqacha aytganda, inson yoki millatning asosiy maqsadlari g'oyalarda namoyon bo'lsa, uni ro'yobga chiqarishga qaratilgan ishlarning mazmun-mohiyati mafkurani tashkil qiladi. Misol uchun, biror uy-joy qurilishi jarayonini olaylik. Uy-joy har bir inson uchun hayotiy zarurat, muhim ehtiyoj, manfaatdir. Shundan kelib chiqib, kishilar o'z didi va imkoniyatlariga mos makon qilishni orzu qiladi. Fikran rejalar tuzib, uni amalga oshirish haqida o'ylaydi. Xullas, uyni qurish jarayoni dastlab fikrda amalga oshadi, tasavvur qilinadi. Bunda uyning o'zi, uning qanday qurilishiga doir masalalar, real imkoniyat va shart-sharoitlar bilan bog'liq ishlarning har biri fikran hisob-kitob qilinib, rejalaniadi. Shu tariqa uy to'g'risidagi fikrlar pishib, konkretlashib aniq maqsadga - yaxlit g'oyaga aylanadi. Ayni paytda, uy haqidagi g'oya va undan manfaatdor kishilarning xohishi, ishonchi va imkoniyatlariga muvofiq amalga oshirishga qaratilgan ishlar xususidagi teran fikrlar, ya'ni uy qurilishining ob'ektiv va sub'ektiv omillari; bajariladigan ishlar, zarur mablag'-materiallar, ularni topish va ishlatish kabi masalalarning aniq yechimlarini ifodalovchi g'oyalar tizimi - mafkura paydo bo'ladi.

Ayni shu tizim (mafkura), undagi manfaatlashgan g'oyalar asosida xatti-harakatlar bosh g'oyaning ro'yobga chiqishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu ma'noda mafkurani qurilayotgan ob'ektning loyixa smeta hujjatiga qiyoslash mumkin. Ob'ektni belgilangan tartibda qurish uchun quruvchilar shu hujjatni yaxshi bilishlari taqozo etiladi.

Shunday qilib, bu o'rinda uyning tasavvurdagi tugal shakli - bosh g'oya, uning mazmuni va qiyofasini belgilab, tavsiflovchi g'oyalarni asosiy g'oyalar, ushbu bosh va asosiy g'oyalar bilan birga qurilish jarayonidagi ish-harakatlar, usullar mazmunini ifodalovchi g'oyalar tizimini mafkura deyish mumkin.

Milliy g'oya va mafkurani shu nuqtai nazardan tavsiflasak, uning davlatimiz va jamiyatimiz qurilishiga doir nazariy-metodologik mazmuni oydinlashadi. Chunonchi, uy g'oyasini milliy mafkuraning bosh g'oyasi Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish desak, uyning qandayligini, uning ichki va tashqi shakl-shamoyilini aniq-ravshan ifodalagan g'oyalarni mafkuramizdagi Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalk, farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi asosiy g'oyalar tashkil qiladi. Bu holda ana shu bosh va asosiy g'oyalarda ifodalanayotgan manfaat - maqsadlar hamda ularni ro'yobga chiqarish uchun jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida: ham individual va ijtimoiy, ham mikro va makro darajalarda amalga oshirilayotgan nazariy va amaliy ishlarning mazmun-mohiyati, ahamiyati va ko'lami; yo'nalishlari, bosqichlari va usullari; bu jarayonlarning

istiqbollari, shuningdek, qurilayotgan jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar xarakteri, ularning kelgusi taraqqiyot bosqichlari, lo'nda qilib aytganda, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat, adolatli fuqarolik jamiyatining shakllanib, rivojlanish qonuniyatlari to'g'risidagi g'oyalar, nazariya va tasavvurlar tizimi milliy mafkurada namoyon bo'ladi

Shunday qilib, bu ma'noda g'oyani - nazariya, mafkurani metodologiya deyish mumkin. G'oya nisbatan turg'un, qat'iy, mafkura esa dinamik xarakterga ega. Chunki, mafkura inson va jamiyat hayotidagi ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlarga mos holda, kishilarning talab, ehtiyoj, ishonch e'tiqod, manfaat va maqsadlariga muvofiq tarzda, retrospektiv asoslarda o'zgarib, rivojlanib boradi. Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: «Xalq, millat o'z milliy mafkurasini butun umri davomida takomillashtirib, boyitib boradi. Chunki, mafkura qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas. Bu - uzluksiz jarayon bo'lib, hayot davom etar ekan, uning shiddatli jurati tufayli mafkuraning oldiga qo'yiladigan yangi-yangi talablar ham paydo bo'ladi».¹¹

Shuni alohida qayd qilish kerakki, mafkura, undagi g'oyalarning manfaatlashish xususiyati bilan, ya'ni g'oyadagi shu g'oya egasi yoki unga ergashgan konkret shaxs, guruh, millatning tub ehtiyoj - manfaatlari va ishonch-etiqodlari ifodalangan tugal mazmun bilan xarakterlanadi. Demak, mafkura - g'oyaning manfaatlashgan mazmuni, shakli, qismi, tomoni, ko'rinishi, qiyofasi va xarakteridir. Ayni paytda, mafkuraning amal qilishida odamlarning undagi g'oyalarga bo'lgan ishonch-e'tiqodi muhim o'rin tutadi. Bu holda mafkurani tavsiflovchi asosiy omillar: a) kishilarning talab, ehtiyoj-manfaatlari va ularni qondirish usul vosita, mexanizmlari; b) g'oyalarga bo'lgan ishonch-e'tiqodning namoyon bo'lishidir;

G'oya o'z sub'ektining ishonch-e'tiqodi, manfaat-ehtiyoji va maqsadlarini qanchalik to'liq, aniq, mukammal ifodalasa, uning asosida hosil bo'lgan mafkura shunchalik kuchli, hayotiy bo'ladi. Demak, g'oyani yaxshi bilish, uning mazmun-mohiyati to'g'risida mukammal bilim-tasavvurga ega bo'lish insonning g'oyaviy - mafkuraviy saviyasini oshirib, ma'naviy-ma'rifiy darajasini yuksaltiradi. Bu saviya qanchalik kuchli bo'lsa, daraja shu darajada baland bo'ladi. Bilim, unga qo'yiladigan bahoda aks etganidek, g'oyaviy-mafkuraviy saviya inson va jamiyat xayotining ma'naviy-ma'rifiy darajasi qanday ekanini ko'rsatadi. Binobarin, yurtdoshlarimizning milliy g'oyamizni o'rganib, o'zlashtirishi natijasida shakllanadigan g'oyaviy-mafkuraviy bilim saviyasi, ya'ni milliy mafkura - davlatning demokratik xarakteri va jamiyatimizdagi ma'naviy ma'rifiy taraqqiyot darajasining muhim ko'rsatkichi va o'lchov mezonidir.

¹¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. 8-жилд.-Т.: “Ўзбекистон”, 2000, 500-501 бетлар.

2.1. Mustaqilligi va ma'naviy-mafkuraviy muammolar hamda ularni yechimi.

Bugungi hayot mustaqilligimizni mustahkamlash, baxtimiz, istiqbolimiz, ertangi farovon hayotimiz bilan bog'liq masalalarni bosqichma-bosqich hal qilishni taqozo etmoqda. Mustaqillik jarayoni esa bunday vazifalarni muttasil hal qilishni, g'oyaviy tarbiya ishlarini doimiy olib borishni, o'sib-unib kelayotgan yosh avlod mafkuraviy immunitetni uzluksiz shakllantirib turishni zaruratga aylantiradi. Bu esa o'z navbatida bunyodkor g'oyalarga sodiq va sog'lom mafkurali komil insonlarni voyaga yetkazish uchun sharoit yaratadi.

Vatanimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, ijtimoiy siyosiy hayotimizda tub o'zgarishlar yuz berdi, xalqimiz tabiati va dunyoqarashiga yod bo'lgan mustabidlik mafkurasi barham topdi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, o'z umrini o'tab bo'lgan eski mafkura o'rnida yangi ijtimoiy munosabatlarni, xalqning asl maqsad-mudaolarini ifoda etuvchi ilg'or va bunyodkor mafkura shakllanmas ekan, jamiyatda g'oyaviy bo'shliq yuzaga keladi. Bunday bo'shliq ilg'or jamiyat taraqqiyoti uchun zarur g'oyalar bilan to'ldirilmasa, uni xalq hayoti uchun yod va begona bo'lgan mafkuraviy ta'sirlar egallab olishi mumkin.

Buni juda yaxshi anglagan yurtboshimiz mustaqillikning birinchi kunlaridanoq bu borada zarur chora-tadbirlar ishlab chiqishga katta e'tibor berdi. Shu bois mafkuradan voz kechish natijasida paydo bo'lgan bo'shliqni yangi-milliy istiqlool g'oyasi tushuncha va tamoyillari bilan to'ldirish va shu tariqa zararli g'oyaviy tajavuzlarning oldini olishga kirishildi.

Lekin, ijtimoiy ong va tafakkur tezda o'zgarib yangicha dunyoqarash osonlikcha shakllanavermaydi. Ayniqsa, bu hali yetarli hayotiy tajribaga ega bo'lmagan, soddadil, ishonuvchan, g'o'r yoshlar tarbiyasida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda turli yo'nalishdagi mafkuraviy tahdidlar ayrim odamlarning qalbini egallab, o'z milliy qadriyatlarimiz hamda umumbashariy sivilizatsiya yutuqlaridan mahrum etish, yurtimiz aholisi tafakkurini bo'ysundirishga harakat qilgan edi.

Ana shunday balo-qozolardan himoyalaniish uchun tajavuzkor g'oyalarga qarshi immunitet hosil qilish kishilarimizni jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini to'liq aks ettiradigan sog'lom, insonparvar mafkura bilan qurollantirish zarur edi. Zero, har qanday jamiyat o'z rivojlanish yo'li, o'ziga xos g'oyaviy asos va mafkuraviy tamoyillariga ega bo'lishi lozim. Ayniqsa, bu o'ta murakkab va qaltis tarixiy sharoitda xalqimizning tarixiy yutug'i - O'zbekiston mustaqilligini ko'z qorachig'idek asrash, pirovard maqsadlar yo'lida odamlarni safarbar qilish, uyushtirish, jipslashtirish uchun ana shunday sog'lom mafkura nihoyatda zarur.

Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, muayyan jamiyat taraqqiyot jarayonida bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishida turmushning barcha sohalarida, hususan, iqtisodiy-

ijtimoiy siyosatda bo'lgani kabi, g'oyaviy-mafkuraviy sohada ham muayyan muammolarni hal qilishi zarurati paydo bo'ladi. Chunki o'ziga xos yangi davr, sharoit, vaziyat, an'anaga aylanib qolgan g'oyalar, qarashlar, munosabatlarni o'zgartirmasdan, ma'lum mafkuraga asoslanmasdan yangi maqsadlar sari qadam tashlay olmaydi. Bu esa yangi g'oya, qarash, munosabat, ma'naviyat, mafkurani ishlab chiqishni talab etadi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ta'kidlagani kabi: "O'zining hayotini, oldiga qo'ygan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, o'z kelajagi haqida qayg'uradigan millat xech bir davrda milliy g'oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi, mafkura bo'lmasa har qaysi davlat va jamiyat, qolaversa, har qaysi inson o'z yo'lini yo'qotishi muqarar"¹²

Ma'naviy, mafkuraviy bo'shliq bir kunda va birdaniga paydo bo'lmaydi. Bunda muayyan jarayonlar ro'y berishi mumkin. Ya'ni, eski g'oya va mafkura tanazulga yuz tutishi, umrini o'tab bo'lishi o'tmishga aylanadi. Masalan, sobiq ittifoq mafkurasi ana shunday holga tushgan edi. Uning asosiy g'oyalari sobiq sho'rolar hokimiyati rahbarligida zo'rlik bilan amalga oshirildi. Natijada bu mafkura yakka hukumron bo'lib qolgan edi. U XX asrning 80-yillarida tanazzulga yuz tutdi. 1991 yilda sobiq ittifoq tarqalib ketishi bilan uzil-kesil inqirozga uchradi.

Buning sabablari: Birinchidan, u o'zini insoniyat tafakkuri erishgan eng yuksak cho'qqi, mutloq haqiqat ifodasi deb hisoblab, boshqa mafkuralarni tan olmas, ular bizning dushmanimiz, degan aqida asosida murosasizlarcha ish tutar edi.

Ikkinchidan, bu mafkura zo'ravonlikka asoslangan bo'lib, "majbur qilamiz" qabilida ish tutar, uning g'oyalari hamma joyda, hamma vaqt xech istisno va to'xtovsiz targ'ib qilinadi, xalqning erkin yashashi va fikr yuritishga yo'l qo'yilmas edi. Kimki bu tartibga qarshi chiqsa shavqatsiz jazolanar butun davlat mexanizmi ana shu jazoni turli shakllarda amalga oshirishga qaratilgan edi.

Uchinchidan, bu mafkura nomigagina ijtimoiy guruhlar mafkurasi edi. Aslida, sobiq ittifoq davrida ziyolilar, dehqonlar, xizmatchilar qolaversa, yo'l boshchi sinfi bo'lgan ishchilarning orasida ham bu mafkuradan norozi bo'lganlar bor edi. Lekin metin mafkuraviy devor ortidan ularning ovozi chiqmas edi.

To'rtinchidan, bu mafkura xech kimga vijdon erkinligi, o'z fikrini ochiq bayon etish, jumladan, xorij fuqarolari bilan xolisona muloqatda bo'lishga ham yo'l qo'yilmas edi.

Beshinchidan, u milliylikdan butunlay xoli edi. Unda mavhum baynalminallik zo'r berib kuylanar edi.

¹² Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар.-Т.: "Ўзбекистон", 2000, 5-6-бетлар.

Oltinchidan, unda milliy tarix, hususan, O'zbekiston tarixi, o'tmish merosi mutloqa tan olinmas edi.

Yettinchidan, xalqlarning diniga, diniy merosiga, diniy qadriyatlariga nisbatan mutloqa noto'g'ri munosabat o'rnatilgan edi.

Zero, bugungi kunda milliy ma'naviyatni anglash Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek: "... mening nazarimda, "ma'naviyat" tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etadi. Shuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma'nodagi "ma'naviyat" tushunchasi orqali ifoda etish mumkin".¹⁴

Bugungi kunda mafkuraviy masalalarni hal qilishda o'ziga xos muammolar ham uchrab turibdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach ma'lum muddat g'oyaviy-mafkuraviy bo'shliq holati vujudga keldi. G'oyaviy bo'shliq eski tuzumdan yangi tuzumga o'tish jarayonida oldin hukumronlik qilib kelgan mafkura o'tmishga aylangach, taraqqiyot talablariga mos ravishda uning o'rnini bosadigan ilg'or g'oyaviy tuzumning hali shakllanmagan holatidir. Bunday sharoitda turli mafkuralar ushbu hududga o'z ta'sir doirasini o'tkazishga urinadi.

1990 yillarning boshlarida bunday mafkuraviy bo'shliq O'zbekiston hududida ham namoyon bo'ldi. Uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat edi.

Birinchidan, hukumron, yakkahokim bolshevistik-kommunistik mafkura batamom tanazulga yuz tutdi va uning o'rnini bo'shab qoldi.

Ikkinchidan, O'zbekiston mustaqil davlat sifatida qaror topgan bo'lsada, uning mafkurasini hali to'la-to'kis shakllanmagan va barcha fuqarolar ongiga singib ulgurmagan edi.

Uchinchidan, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lgan joyda muqarrar tarzda boshqa yod va begona mafkuralar xuruji boshlanadi o'tish davrida, yangicha qarashlar mustahkam e'tiqodga aylanib ulgurmagan paytda tashqi mafkuraviy ta'sirlarning yaxshi yoki yomon, foydali yoki zararli ekanini hamma ham farqlay olmaydi.

To'rtinchidan, mustaqil mamlakatimiz tinch, osoyishta yashayotgan bir paytda Afg'oniston va boshqa yaqin xududlardagi beqaror vaziyatdan foydalanib, ularning hududiga kirib olgan ba'zi bir ekstremistik kuchlar, terrorchi to'dalar o'z jinoyatkorana maqsadlarini amalga oshirishga, Markaziy Osiyo mintaqasini mafkuraviy kurashlar maydoniga aylantirishga urina boshlagan edi. Bu borada Prezidentimiz Islom Karimov "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" asarida sobiq tuzm to'g'risida to'xtalib, shunday degan edi: "Bugun o'sha davr

¹⁴ Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Т.: "Маънавият", 2008, 20 б.

to'g'risidagi haqiqatni xolisona aytadigan bo'lsak, u zamondagi hayotimizni jahon tarixi va amaliyoti bilan taqqoslaydigan bo'lsak, shuni ochiq aytish kerakki, u paytda O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga-markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan yarim mustamlaka mamlakatga aylangan edi".¹⁵

Mamlakatimiz hududini yod mafkuralar poligoniga aylanishiga yo'l qo'ymay, O'zbekiston xalqining ongi, dunyoqarashi, xayotiga ijtimoiy munosabati, xatti-harakatlarida mafkuraviy immunitetni shakllantirib, milliy istiqlol mafkurasini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdirish, bugungi kundagi muhim vazifadir. "Buning yo'li-odamlarimiz, avvalambor, yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baqquvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash. Ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarining muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish. Ularning, men o'zbek farzandiman, deb g'urur va iftixor bilan yashashga erishishdir".¹⁶

Mafkuraviy kurashlar kuchaygan bugungi kunda yoshlar qalbida ona-Vatanimizga, boy tariximizga, milliy qadriyatlarimizga, millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tilimizga, ota-bobolarimizdan meros muqaddas dinga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirishimiz maqsadga muvofiqdir. Zero, yurtboshimiz aytganlaridek, biror bir kasallikni davolashdan oldin inson organizmida avvalo unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham yoshlarimiz qalbi va ongida zararli g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantira olsak, turli xil "da'vatchi" larning aldovlariga uchmaydigan, o'z yurti, Vatani va xalqi uchun fidoyi insonlarni tarbiyalay olamiz.

Hullas, milliy g'oy va mafkuraning xalqimiz ongiga sindirish orqali ularda mafkuraviy immunitet hosil qilish zamon amri, davr talabi. Bu bir zumda, birpasda amalga oshiriladigan jarayon emas. Bunda har bir kishining faolligi, omilkorligi talab etiladi. Uning amalga oshirilishi esa O'zbekistonimizning salohiyatini yanada oshiradi, kelajagi buyuk davlat barpo etilishini ta'minlaydi, xalqimiz e'tiqodini mustahkamlaydi.

¹⁵ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. –Т.: “Ўзбекистон”, 1999.

¹⁶ Каримов И.А. Миллий истиқлол мафжураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. –Т.: “Ўзбекистон”, 2000, 11 б.

2.2. O'zbekistonning ichki xavfsizligini ta'minlashning ma'naviy-mafkuraviy asoslari

Bugungi kunda mamlakatimizga qarshi qaratilgan mafkuraviy taxdidlarni alohida ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagilardan iborat:

- islom xalifaligini tiklab, uning bayrog'i ostida musulmon xalqlarni yangi imperiyaga birlashtirishga qaratilgan intilishlar;
- yosh mustaqil davlatlarni qaytadan sobiq ittifoqqa birlashtirish g'oyasi;
- tariximizni, milliy qadriyatlarimiz va dinning mohiyatini soxtalashtirishga urinishlar;
- axloqsizlikni yoyib, xalqni ma'naviy jihatdan buzishga qaratilgan intilishlar;
- turli mafkuraviy vositalar orqali mintaqaviy va davlatlararo mojarolar keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlar.

Mintaqamizda Islom xalifaligini tiklashga urinishlar xavfli ko'rinish olmoqda. Masalan, hizbut-tahrirga tegishli qaysi bir adabiyotni olib qaramaylik, unda xalifalikni tiklashga da'vat qilinadi. "Akro-miylik" esa dastlab Andijon viloyatida, so'ngra Farg'ona vodiysida, keyinroq mamlakatimizning butun hududida, keyinchalik barcha musulmon mamlakatlarida xalifalikni tiklash g'oyasini olg'a suradi. Islom tarixidan ma'lumki, xalifalikka Muhammad payg'ambar vafotidan keyin choriyorlar Abu Bakr as-Siddiq (632-634), Umar ibn Hattob (634-644), Usmon

ibn Affon (644-656), Ali ibn Abu Tolib (656-661) birin-ketin rahbarlik qilgan. Bu davrda xalifa dinning ham, davlatning ham boshlig'i, raxnamosi hisoblangan. Keyinchalik podsholik bo'lib, rahbarlik 661-749 yillarda makkalik zodagonlardan Muoviya ibn Abu Sufyon sulolasi qo'liga o'tgan va ummaviylar sulolasi nomini olgan. 749 yili toju taxt Muhammad payg'ambarning amakilari avlodlaridan bo'lgan Abdul Abbos as-Safiq sulolasi qo'liga o'tgan. Ularning davlati abbosiylar nomi bilan mashhur bo'lib, 1238 yilgacha, mo'g'ullar zabt etguncha davom etgan. Ayni paytda XII-XIII asrlarda Misr va Marokashda fotimiylar sulolasi ham o'z davlatini joriy qilgan. XVI asrdan e'tiboran usmonli turklar ham xalifalikni e'lon qilgan va u 1924 yilning uchinchi martigacha hukm surgan. Turkiya respublika deb e'lon qilinishi bilan xalifalik hokimiyatiga chek qo'yilgan va so'nggi xalifa Abdumajid 1924 yil 4 martining tong otarida Istambuldan Shveysariyaga chiqarib yuborilgan. XXI asrda islom dunyosi boshqa mamlakatlar ham o'zlari tanlagan taraqqiyot yo'lidan rivojlanib kelmoqda. O'tgan yillar tarixiy tajribasi xalifaliksiz ham erkin rivojlanish mumkin ekanini ko'rsatdi. Xalifalik tarix sahifalarida qolib ketdi.

Lekin bugungi kunda sobiq ittifoq respublikalarining ayrimlarida eski tuzumni qaytadan tiklashni xohlovchilar, buni o'zlari uchun g'oyaviy maqsad qilib olgan kuchlar ham mavjud. Sobiq sho'ro tuzumi 1991 yilgi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlardan so'ng barham topdi. Xolbuki, o'tmishga qaytish, tarixni teskari aylantirish mumkin bo'lmaganidek, o'z yo'lini topib olgan, mustaqil davlatlar, ayniqsa, O'zbekiston va o'zbek xalqi yana eski holatga qaytishga aslo rozi bo'lmaydi. Islom Karimov "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" asarida sobiq tuzum to'g'risida to'xtalib, shunday degan edi: "Bugun o'sha davr to'g'risidagi haqiqatni xolisona aytadigan bo'lsak, u zamondagi hayotimizni jahon tarixi va amaliyoti bilan taqqoslaydigan bo'lsak, shuni ochiq aytish kerakki, u paytda O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga - markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan yarim mustamlaka mamlakatga aylangan edi"¹⁷

Endilikda O'zbekiston bu borada o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lini tanlab olgan, u hech qachon o'zi tanlagan mustaqillik yo'lidan qaytmaydi.

O'zbek xalqi juda katta ma'naviy merosga ega. Lekin sobiq mafkura ta'sirida uzoq yillar tariximiz bir tomonlama yoritib kelindi. Tarixdan ma'lumki, bir xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar, avvalo, uni o'zligidan, tarixidan, madaniyatidan judo qilishga intiladi, zararli ta'sirlar davom etaversa millat o'zligini yo'qotishi, ming yillik an'analarini boy berib, olomonga aylanib qolishi ham hech gap emas.

¹⁷ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. –Т.: 2001, 44 б.

Ana shuni yaxshi biladigan turli mafkuraviy kuchlar bizni o'z tariximizdan judo qilish, uni zo'r berib soxtalashtirishga intilmoqda. Bu borada turli yo'llardan foydalanishga, ayniqsa yoshlarimizni yo'ldan og'dirishga harakat qilmoqda.

Mamlakatimiz xalqining qalbi va ongiga yot mafkurani singdirish uchun dushmanlarimiz bir qarashda beozor, go'yo siyosatdan xoli tuyuladigan mafkuraviy vositalarga katta e'tibor bermoqda. Jumladan, keyingi yillarda ko'plab namoyish etilayotgan yengil-elpi yoki jangarilik filmlari bunga misol bo'ladi. Ma'lumki, bu filmlarni ko'pchilik, ayniqsa, yoshlar maroq bilan tomosha qiladi. Sir emas, anchagina odamlar tabiatida, xulq-atvorida mana shunday to'polonlarga moyillik bo'ladi. Prezidentimiz shuni nazarda tutib, bunday degan edi: "Shuning uchun ongi shakllanib ulgurmagan aksariyat yosh tomoshabinlar bunday filmlardan ko'pincha turli yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsizliklarni o'rganadi, xolos. Natijada ularning diydasi qotadi, qalbida toshbag'irlik, zo'ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy olganini o'zi ham sezmay qoladi. Xatto shunday tomosha va filmlarning qahramonlariga ko'r-ko'rona taqlid qilishni istaydigan yigit-qizlar ham topiladi. Chunki, ular bunday uydirma talqinlar ta'sirida qo'l urayotgan ishi qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishini tushunib yetmaydi".¹⁹

Mamlakatimizga tahdid solayotgan mafkuraviy ta'sirlardan yana biri uzoq davom etadigan mintaqaviy va davlatlararo mojarolarni keltirib chiqarishga urinish bo'lib, buni ayrim mamlakatlar xududida faoliyat ko'rsatayotgan ba'zi g'oyaviy-mafkuraviy markazlar o'zlariga maqsad qilib olgan. Ular muayyan mamlakat hududidan boshqa mamlakatga qarshi g'iyohvand moddalar, taqiqlangan adabiyotlar, turli qurol-yarog' kabi narsalarni noqonuniy tarzda olib o'tishga urinmoqda. Ularning ma'lum bir kuchlari Afg'oniston hududida turib, Markaziy Osiyo davlatlariga O'zbekiston va Qirg'iziston hududiga, bu yerda yashayotgan xalqlar hayotiga qarshi tajovuzkorona harakatlar qilishga, begunoh insonlar qonini to'kishga intilmoqda. Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, "bunday o'taketgan xunrezlik, muttahamlikni o'ziga kasb qilib olgan bizning umumiy dushmanlarimizga muqaddas zaminimizda aslo o'rin bo'lmasligi kerak"²⁰

Bu taxdidlar, eng avvalo, oddiy insonlar qalbi va ongini zabt etishga, ularni o'z milliy qadriyatlaridan, umumbashariy sivilizatsiya yutuqlaridan mahrum etishga, pirovard natijada yurtimizni qaram qilib olishga qaratilgan tajovuzkorlikning mafkuraviy shaklda namoyon bo'lishidir.

¹⁹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировад мақсадимиз.-Т.: "Ўзбекистон", 2000, 494 б.

²⁰ Каримов И.А. Эғали юрт эркини бермас. //Халқ сўзи, 2000, 31 август.

Xalqimizni turli g'oyaviy tahdidlardan asrash, jamiyatimiz a'zolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun, avvalo, ularni milliy g'oya, istiqlol mafkurasi bilan qurollantirish zarur edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatimizda eski mafkura asoratlariga, quruq saf-satabozlikka, xalqimiz manfaatlariga zid bo'lgan sobiq siyosiy va mafkuraviy tuzilmalarga barham berildi. Ijtimoiy adolat, xavfsizlik, ijtimoiy muhofaza, millati, dini va e'tiqodidan qat'i nazar, fuqarolarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini, qonunning ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan zarur chora-tadbirlar ko'rildi. Jamiyatdagi sog'lom ijtimoiy-siyosiy muxitni buzadigan, odamlar fikrini chalg'itadigan noxush holatlarga barham berildi. Mamlakat va xalq manfaatlari yo'lida birlashish, xamjixat bo'lish, barcha imkoniyatlardan extirolarga berilmay, aql-idrok bilan foydalanish yo'li tutildi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab jamiyatimizda ma'naviy poklanish zarurati sezildi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov shunday sharoitda birinchi bo'lib jamiyatda ma'naviy poklanish uchun eski aqidalardan xalos bo'lish lozimligini ko'rsatib berdi, keyinchalik esa milliy istiqlol mafkurasini yaratish zaruratini asosladi va jamiyatimiz e'tiborini unga qaratdi.

Sho'rolar mafkurasi kishilar ongiga ijtimoiy tenglik, bugungi ta'sir bilan aytganda, boqimandachilik tushunchasini singdirib ketgan edi. Bunday kayfiyat odamning tashabbusiga yo'l bermas edi. Chunki inson o'z mehnat mahsulidan manfaatdor bo'lmasa, unda halol ishlash, mas'uliyat tuyg'usi yo'qoladi. Bunday illatdan esa milliy istiqlol mafkurasi vositasida xalos bo'lish mumkin. O'zbekistonda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish g'oyasi asosida milliy istiqlol mafkurasi ishlab chiqildi. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari Islom Karimov asarlari asosida: shakllanib, xalqimiz qalbi va ongiga singdirilmoqda. Milliy g'oya, istiqlol mafkurasi ijtimoiy taraqqiyot rivojiga qarab takomillashib, yangilanib boradi. Davr talabi bilan o'rta tashlangan muayyan qoidalar o'z vazifasini o'tab bo'lib, o'rnini yanada dolzarbroq boshqa tamoyillarga bo'shatib beradi. Milliy istiqlol g'oyasi aynan ana shunday doimiy yangilanish mahsuli, ong va tafakkur hosilasi hisoblanadi.

Milliy istiqlol g'oyasining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uni fuqarolar ongiga singdirishni qiyinlashtiruvchi omillarni nazardan qochirish lozim, ular quyidagilardir:

- millatchilik
- mahalliychilik va urug'-aymoqchilik;
- etnik va millatlararo ziddiyatlar;
- ma'naviy mahdudlik, tarixiy xotirasizlik;
- begona va zararli g'oyalarning ta'siriga berilish;

- boqibegʻamlilik, boqimandalik kayfiyatlari.

Ana shu sanab oʻtilganlarning har biri barqarorlikka muayyan taxdid solishi mumkinligi, Oʻzbekiston Prezidenti I.A.Karimov tomonidan koʻrsatib berilgan. Bunday illatlar yurtimizda milliy istiqlol gʻoyasining samarali shakllanishi va mustaqillik odimlarining yanada unumli boʻlishi zarur omilga aylanishiga aslo xizmat qilmaydi.

Millatchilik va mahalliychilik, maʼnaviy qashshoqlik, muammosi nihoyatda serqirradir, holbuki, dunyoda anʼanalari, tarixi, oʻziga xosligi, udum, odat va boshqa milliy xususiyatlariga ega boʻlmagan, ulardan faxrlanmaydigan millat yoʻq. Ammo gap faxrlanish hissining tabiiyligida emas, balki asosiy masala bu boradagi xatti-harakat, maqsad va faoliyatlarning oʻzga millat vakillarining tuygʻulari, oʻziga xos milliy qadriyatlarini tahqirleydigan, kamsitadigan boʻlishining zararli ekanligidir.

Bunda millatparvarlik va millatchilik oʻrtasidagi aloqadorliqdagi nozik, serqirra jihatlarni chuqur va har tomonlama oʻrganish nihoyatda muhim. Afsuski, sobiq ittifoq davrida masalaning bu jihatini oʻrganishga ragʻbat yoʻq edi. Chunki u davrlarda millatlarni Tezroq yaqinlashtirish, "sovet xalqi" degan soxta tushunchani mazmun bilan toʻldirishga zoʻr berib urinish ustuvor edi.

Mustaqillik sharoitida millatlar va milliy munosabatlar nazariyasi, millatlararo munosabatlar madaniyati, millatparvarlik gʻoyalari keng va chuqur Ishlanishiga zarur sharoitlar yaratilmoqda va natijada millatchilikka, yaʼni milliy manfaatlarga tor va bir tomonlama qarashga oʻrin qolmayapti. Bu esa oʻz navbatida mamlakatimizda yashayotgan barcha xalqlar uchun umummilliy gʻoyani shakllantirishga yordam beradi. Milliy biquqlik hozirgi davrdagi etnik jarayonlarning Mohiyatini tushunmaslik, ularni yuzaki talqin etish mahsuli hisoblanadi. Holbuki, mamlakatimizning gullab yashnashini koʻzlaydigan har bir fuqaro yurtimizning jahon hamjamiyati bilan aloqalari kengayishi, milliy biquqlik asoratlaridan qutulishga xizmat qilishi hozirgi kunning talablaridan biri boʻlib qoldi.

Mahalliychilik, urugʻ-aymoqchilik, baʼzi qatlam yoki guruh manfaatlarini umumxalq maqsadlaridan yuqori qoʻyish hollari milliy gʻoya shakllanishiga salbiy taʼsir qiluvchi illatlardan yana biridir. Bu toʻgʻrida Oʻzbekiston Prezidenti I.A.Karimov 1993 yil aprel oyida bir guruh yozuvchi va shoirlar bilan oʻtkazgan uchrashuvida quyidagi fikrlarni aytgan edilar: "Biz mahalliychilikka, guruhbozlikka chek qoʻyishimiz zarur, Bunday narsalarni oramizdan koʻtarib tashlashimiz kerak Bu ishimizga halaqit beradi. Dunyoda oʻzbek millati bitta. U Xorazmlikmi, Fargʻonalikmi, Surxondaryolikmi farqi yoʻq - oʻzbekdir". Oʻsha uchrashuvda Prezidentimiz yana quyidagicha uqtirganlar: "Tariximizga nazar solsangiz, shu narsa ayon boʻladiki, amal talashish, mansab talashish yomon ofat boʻlgan. Bu juda xunuk illat demoqchiman. Shu nuqtai nazardan qaraganda bizni birlashtiradigan bitta gʻoya boʻlishi kerak. U ham boʻlsa shu Vatanning, shu

tuproqning, yurtning manfaatidir". Ana shu umumiy manfaat va unga asoslanadigan mas'uliyat tuyg'usi umumiy g'oyaga olib keluvchi ma'naviy asoslardan biridir.

Ma'naviy maxdudlik va tarixiy xotirasizlik ham milliy g'oyani singdirishga halaqit beradi. Ma'naviy xudbinlikning etnik sohadagi ko'rinishi bo'lgan milliy mahdudlik milliy biqlik bilan egizak va cham-barchas aloqador tushunchadir. U milliy biqlikdan oziqlanadi, unga asoslanadi. Shu bilan birga, milliy mahdudlikda o'zi mansub bo'lgan millatga xos xususiyatlarni mutloqlashtirish, boshqa el, xalq qadriyatlarini nazar-pisand qilmaslik unsurlari ham uchraydi. Milliy g'oyani shakllantirish va fuqarolarga singdirish jarayonida bunday illatlarga qarshi doimo va uzluksiz kurash olib borish zarur.

Bu ayniqsa tarixiy xotirasizlik va manqurtlik illatlarini barham toptirishda nihoyatda muhim. Sobiq ittifoq davrida tarixiy xotirasizlik va manqurtlik holatlari vujudga keldi. Milliy tarixga e'tiborsizlik, o'tmishni hukmron mafkura nuqtai nazaridan bir tomonlama tushuntirish, mos kelmaydigan tomonlarini ko'r-ko'rona qoralash bu illatlarning namoyon bo'lishi edi. 80-yillarga kelganda aynan manqurtlik va tarixiy xotirasizlik o'sha davr kishilari ma'naviyatidagi bo'shliqlardan biri ekanligi qo'zga tashlanib qoldi, tarixiy xotirasiz kishilarni soxta shiorlar bilan aldash, bu shiorlarga ishontirish oson. Tarixiy xotirasi kuchli kishilar o'zlari yashab turgan hudud va mintaqada olis moziydan hozirgi kungacha qanchadan-qancha xalq va millat vakillari yashagani, etnik bag'rikenglik hamda millatlararo hamjihatlik barqarorlikning doimiy asoslaridan biri bo'lganligini yaxshi biladi, teran anglaydi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov bir guruh tarixchi olimlar bilan suhbatida "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" - deb bejiz aytmaganlar. Demak, hozirgi davrda tarixiy xotirasi butun, uzoq va yaqin o'tmishni chuqur biladigan avlodga, ana shunday kishilarni tarbiyalashga extiyoj kuchayganligi tasodifiy emas. Bu tarixiy zaruriyat, hayotning qonuniy talabiga aylanib qoldi. Shuni ta'kidlash lozimki, G'arb mamlakatlarida asrimizning o'rtalaridan keng tarqala boshlagan "deideologizatsiya", ya'ni "mafurasizlik nazariyasi" o'z mohiyataga ko'ra umuman mafkura bo'lmasin, degan qarashni ilgari surmaydi. Bu sobiq ittifoq ma'naviy hayotining asosiy shartiga aylangan, ammo G'arbdagi demokratik tamoyillarga mos kelmaydigan hukmron mafkura bo'lmasin, mafkura o'z yo'liga, siyosiy yoki iqtisodiy hayot o'z yo'liga, degan qarashlardir.

Biz bu nazariyani chuqur tahlil etish, yoki uni foydali, degan fikrdan yiroqmiz. Aslida yagona mafkurani mutloqlashtirish qanchalik salbiy natijalarga olib kelsa, umuman mafurasizlyk ham shunchalik nomaqbul natijalarni keltirib chiqaradi. Bunda eng asosiy umuminsoniy talab O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida quyidagicha belgalab qo'yilgan: "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va

fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'ratilishi mumkin emas".²¹

Mafkurasizlik kuchli mafkuraviy poligonlar ta'siriga tushib qolish, g'oyaga qarshi g'oya bilan kurash olib borish imkonini yo'qotib qo'yishga olib keladi. Ana shu sababdan ham O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov quyidagilarni ta'kidlagan: "Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qaerdaki mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi ham tayin. Buning isboti uchun xoh tarixdan, xoh zamonamizdan ko'plab misollar keltirish qiyin emas".²²

"Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin" nomli asarda mamlakatimiz Prezidenti hozirgi davrda odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlarigagina xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli ma'no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning ta'sirini doimiy ravishda sezib yashaydi, deya alohida e'tirof etgan. Qolaversa, Prezident fikricha, axborot asri, elektronika asri deb atalgan XX asrning nihoyasida, bugungi davrimizda ham, bu ta'sirlardan xoli bo'lish deyarli imkonsizdir. Ta'bir joiz bo'lsa, aytilish mumkinki, bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko'proq kuchga ega.

Aynan ana shunday poligonlar yosh, endigana mustaqillik yo'liga o'tgan mamlakatlarga ta'sirini qaratadi. Maqsad - o'z g'oyasini o'tkazish, o'z tamoyillari ta'siriga tushirish. Ayniqsa, bu taxlit poligonlar eskidan tayyorlangan, tarixiy ildiziga ega bo'lgan va nihoyatda imperiyaparast kuchlarga xizmat qiladigan bo'lsa, unda mustaqillikka yaqinda erishgan davlatlar uchun doimiy hushyorlik, oqoxlik hayotning zarurati bo'lib qoladi.

Milliy g'oyani shakllantirish jarayonining yanada samaraliroq bo'lishiga sobiq ittifoqdan meros qolgan boqibeg'amlik, bamaylixotirlik, boqimandalik illatlari muayyan darajada xalaqit beradi.

Gap ular ayrim kishilarning ongida haligacha yashab kelayotganida, ba'zi odamlarning o'z turmush tarzining bir qismiga aylangan bu qusurlardan qutulishlari qiyin bo'layotganligida, yurtimizdagi tinchlik, osoyishtalik, barqarorlikni saqlash va mustahkamlash manfaatlar ham bu taxlit salbiy hollardan tezroq qutilish zarurligini taqozo qiladi.

Ogohlik har doim bamaylixotirlik, boqibeg'amlik va o'ta xotirjamlik kayfiyatlariga imkon qoldirmaydi, kishilarni hushyorlikka chorlaydi, ijodiy va omilkor ishlash, yashashga undaydi. Ana shunday kishilargina fidokor bo'la olishlari, el-yurt manfaati uchun yonib yashashlari,

²¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т., "Ўзбекис-тон", 2003 йил, 11-бет.

²² "Мулоқот журнали", 1998 йил, 5-сон.

buyuk kelajakni qurish yo'lida yagona g'oya atrofida birlashishlari va omilkor faoliyat ko'rsatishlari mumkin.

Mazkur fikr-mulohazalardan esa quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti davridagi mafkuraviy muammolarni hal qilish va milliy istiqlol g'oyasining shakllanishi muayyan davr, nazariy, ilmiy va amaliy faoliyatlarni o'z ichiga oladigan murakkab hamda serqirra jarayondir. Bu jarayon mamlakatdagi barcha ijtimoiy birliklar, tashkilotlar, rahbarlar, mas'ul xodimlar, aholi qatlamlarining ongi, qarashlari, ehtiyoj, maqsadlarining istiqlol manfaatlariga uyg'un tarzda o'zgarishini, kamolga yetishini, umumiy mezonga aylanishini zaruriyatga aylantiradi.

Bu davrda mafkuraviy vazifalarni yechishning ob'ektiv va sub'ektiv asoslari, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy sohalaridagi o'zgarishlarni taqazo qiladigan shart-sharoitlari, o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu shart-sharoitlarning barchasi ham bir vaqtning o'zida yechilavermaydi va bir-biri bilan o'z-o'zicha uyg'unlashavermaydi. Buning uchun vaqt, shunga yo'naltirilgan faoliyatlar, dastur va rejalarni bajarish lozim bo'ladi. Ularning uyg'unligi bu jarayonning samaradorligini, istiqbollarini belgilaydi, ana shu sohadagi vazifalarni hal qilishni kun tartibiga qo'yadi.

Milliy itiqloq g'oyasining shakllanishiga o'tish davriga xos bulgan, sobiq ittifoqdan qolgan va barham topayotgan ba'zi illatlar, joylarda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, mamlakatimiz atrofidagi davlatlar va mintaqadagi notinchliklar, barqarorlikka nisbatan xavflar ham muayyan ta'sir ko'rsatadi. Bu boradagi ilmiy tadqiqotlar, nazariy izlanishlar va amaliy faoliyatlarda ana shu jihatlarga alohida e'tibor berish, muammolarni hal qilish yo'llarini izlab topish muhim ahamiyat kasb etadi.

3.1. Mintaqaviy xavfsizlik va global xavfsizlikka erishish yo'llari.

Yangi ming yillik boshidanoq butun ma'rifatli dunyo uz taraqqiyot istiqbollari strategiyasini belgilab olmoqda ekan, biz xam mamalkatimizning rivojlanishi strategiyasi, isloxlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasida ustuvor yo'nalishlarini belgilab oldik. Mamakat iqtisodiy, siyosiy bobidagi ustivor yo'nalishlari bilan birga, jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarxadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz xududiy yaxlitligini ta'minlashdan iborat yo'nalishga xam Prezidentimiz o'zining ma'ruzasida katta axamiyat berdi. Shu munosabat bilan, - degan edi I.Karimov, O'zbekistondan boshqa Davlatlarning ichki ishalriga aralashmaslik, xalqaro xamkorlikni rivajlantrish, dunyo mamlakatlari bilan teng xuquqlilik asosida sherikchilik qilish, barcha mojaro va muammolarni faqat tinch siyosiy va xuquqiy vositalar bilan xal etish tarafdori ekanini yana bir bor ma'lum qilmokchiman.

Ammo mintaqadagi axvol, dunyoning boshqa xududlarida vaziyatning keskinlashuvi O'zbekistonning suverenitetiga, izchil va barqaror rivojiga xavf solishi mumkin bo'lgan kuchlarga munosib javob qaytaradigan xavfsizlik tizimlarini yaratishni takozo etmoqda.

Mazkur vazifalarni bajargan taqdirdagina biz farovon turmushga, adolatli xayotga erishamiz, jaxon xamjamiyatida o'zimizga munosib o'rnimiz va nufuzimiz bo'ladi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining tinchligi va barqarorligiga, mazkur mintaqada yashovchi xalqlarning xavfsizligiga daxl qiluvchi tajovuzlarning oldini olish va bartaraf etish borasidagi xamjixatligini mustaxkamlash zarur. Ularning bu yo'ldagi sa'y-xarakatlari, imkoniyatlari va saloxiyatlarini muvofiklashtirish va birlashtirish ayniqsa muximdir.

Markaziy Osiyoda yashovchi turli millat va elatlarning asrlar mobaynida shakllangan ma'naviy va madaniy alokalarini mustaxkamlash mintaqamiz xavfsizligining muxim sharti ekanini aloxida ta'kidlash kerak.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi iqtisodiy xamkorlik maqsadlarini xar tomonlama kengaytirish. Iqtisodiy loyixalarni, birinchi galda, mintaqaning boy tabiiy zaxiralaridan, energetika va suv manbalaridan foydalanish, transport kommunikatsiyalari, gaz va neft tarmoqlarini barpo etish, ekologik muommolarni hal qilish kabi soxalarga tegishli aniq loyixalarni yaratish va amalga oshirish borasida kuch va imkoniyatlarimizni birlashtirishimiz lozim.

Aynan mana shu soxalarda xamkorlik qilish Markaziy Osiyodagi barcha mamlakatlarning manfaatlariga mos kelishi shubxasiz. Bu xamkorlik butun mintaqaning kuchli ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishiga, shu bilan birga, uning xavfsizligi, barqarorligi va rivojlanishiga mustaxkam asos yaratgan bo'lur edi.

Xavfsizlikning bo'linmas va yaxlitligi xaqidagi bosh prinsipga tayanib, terrorchilikka qarshi kurash bo'yicha xalqaro markaz borpo etishga oid O'zbekiston tashabbusini amalga oshirish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish.

Markaziy Osiyodagi barqarorlik va tinchlikni izdan chiqarishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarning oldini olish va bartaraf qilish bo'yicha bu muhim masalaga xalqaro tuzilmalarning e'tiborini oshirish borasidagi takliflarni amalda joriy etish yo'lidagi sa'y-xarakatlarni davom ettirish darkor.

Jamiyatimizda yuz berayotgan barcha uzgarishlarni amalga oshirishning asosiy garovi, vatanimizning xavfsizligini ta'minlash, tinchlik barqarorlik, millatlar va fuqarolar o'rtasida totuvlikni saqlash va asrashdir. Turli xil ekstremistik kuchlar xavfsizligimizga raxna solmoqdalar. Giyoxvand moddalar va qurol-yaroglarni noqonuniy yo'llar bilan olib o'tish va sotish nafaqat mintaqamiz, balki butun dunyo xavfsizligiga jiddiy taxdid solmoqda.

Yuzaga kelgan ana shunday vaziyat O'zbekistonning izchil va barqaror taraqqiyotini amalda ta'minlashga qodir bo'lgan xavfsizlik tizimini yaratishni taqozo etmoqda. Bular:

Yagona Davlat siyosati asosida armiya, chegara va ichki qo'shinlarimizni bosqichma-bosqich va izchil islox qilish.

Eng yuksak talablarga javob beradigan, tinchligimiz va osoyishtaligimizni samarali va ishonchli tarzda ximoya qilaoladigan, tezkor, yetarli darajada ta'minlangan va yaxshi qurollangan, professional tayyorgarlikka ega bulgan qurolli kuchlarimizni shakllantirish kerak.

Davlat chegaralarimizni yanada mustaxkamlash va unga tegishli inshootlarni barpo etish. Davlat chegaralarini qo'riqlash va ximoya etishga qaratilgan butun tizim mamlakatimizning xududiy va kuporuvchi unsurlarning sarxadlarimizdan utishiga yo'l qo'ymasligi, O'zbekistonning iqtisodiy va boshqa manfaatleri ximoyasini ta'minlashi shart.

Xuquq-tartibot organlari tizimini islox etish va ularning jamoatchilik bilan aloqalarini mustaxkamlash. Joylarda jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun uzini-uzi boshqarish organlari bilan birga maxallalarning rolini yanada oshirish zarur.

Jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda "chegara posbonlari" va "maxalla posbonlari" kabi fuqarolik tuzilmalarining kuchli salohiyatidan to'la foydalanish lozim. Jamoat tartibini va fuqarolarning o'z shaxsiy xavfsizligini saqlashi ularning xushyor va ogoxligiga, tevarak-atrofida

ro'y berayotgan voqealarga faol munosabatiga bog'lik ekanini odamlarning ongiga yetkazish muxim. Axoli faolligini oshirish lozim.

I.Karimov «O'zbekiston XX1 asr bo'sag'asida» (1997) asarida milliy xavfsizlik muammosini qanday tushunish va tasavvur etishni quyidagicha ifodalab bergan:

1.Xavfsizlik uzluksiz xolatdir, xadsiz-xududsizdir.

2.Xavfsizlikka asosiy taxdidni etnik, mintaqaviy, maxalliy mojarolar va davlat ichidagi separatizm solmoqda.

3.O'zbekiston o'zining jug'rofiy-siyosiy xolatidan kollektiv xavfsizlik tizimi izchil yo'lga qo'yilmagan mintaqada joylashgan.

4.O'zbekiston Fors, Kaspiy, Tarim xavzasining neft va gazga boy konlari joylashgan yarim xalqaning strategik markazidir. Yevrosiyo va Jaxon kelajagi uchun xal qiluvchi rol uynaydigan energiya zaxiralari mavjud (gaz, neft, elektroenergiya)

5. Bu makonlarga Rossiya, Xitoy, Turkiya, Xindiston, Pokiston, Eron, Saudiya Arabistoni va G'arb davlatlarining manfaatlari to'qnashgan.

6. Mintaqaviy nizolar, terrorizm, diniy ekstremizm, qurol-yaroq va narkotik moddalar bilan savdo qilish, jinoyatchilik va ekologik taxdidlar mavjud.

I.Karimov mavjud taxdidlarni milliy xavfsizligimiz uchun naqadar katta xavf ekanini doimo uqtirib, jaxon xamjamiyati diqqat-e'tiborini ushbu muammolarni xal etishga chaqirib kelmoqda. Xalqimizni esa doimo ogoxlikka chorlamoqda. O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaganligi va shurolar davridan juda ko'plab yechilmagan muammolar bizga meros bulib qolgani xam siyosiy barqarorlikka xavf solmoqda. Shuning uchun I. Karimov milliy totuvlik siyosatini izchil olib borib barcha millatlar teng rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarga aloxida axamiyat berib kelmoqda. O'zbekistonda milliy xavfsizlik va siyosiy barqarorlik uchun olib borilayotgan kurashning axamiyati shundaki, u mustaqillikni va butun O'zbekistonning kelajagini ta'minlab beruvchi omildir. Chunki qaerda tinchlik va barqarorlik bo'lmasa, u yerda bunyodkorlik va faravon xayotni qurish mumkin emas.

I.Karimov «O'zbekiston XX1 asr bo'usag'asida» (1997) asarida mintaqaviy xavfsizlik va global xavfsizlikka erishish yo'llari xaqida o'z fikr- mulohazalarini bildirgan. Buning uchun avvalo mintaqadagi xavfli nuqtalar Tojikiston va Afg'oniston muammolarini xal etish zarur. I.Karimov Afg'onda olib borilgan antiterror faoliyatining hozirgi bosqichida Afg'onning tog'larida yashirilib qolgan toliblarni batamom tugallash, aholini imkon qadar qurolsizlantirish, narkotik moddalar savdosiga va yetishtirilishiga chek qo'yish va Afg'onda mahalliy etnik birliklar manfaatini himoya qiluvchi xukumatni barpo etish zarurligini ta'kidlagan. Mintaqaviy xavfsizlik bugungi yaxlit va uzviy bog'langan dunyoda tez rivojlanib global xarakterga ega

bo'lish xavfi doimo mavjud. Shuning uchun O'zbekiston xalqaro terrorizmga qarshi kurashda jaxon xamjamiyatining faol xamkori sifatida ishtirok etadi. Shu bilan birga O'zbekiston «Shanxay oltiligi» xarbiy siyosiy ittifoqida faol qatnashmoqda. Yevropada xavfsizlik va xamkorlik tashkiloti, NATO qurolli kuchlari o'quv mashqlarida ishtiro etmoqda. I.Karimovning AQSh ga safari va u yerda imzolagan teng sheriklik shartnomasi ham mintaqaviy va global havfsizlikka erishish yo'lidagi qadam hisoblanadi.

3.2. O'zbekistonda milliy xavfsizlik va siyosiy barqarorlikni ta'minlashda milliy mafkuraning ahamiyati

Hozirgi jamiyatda siyosat va din o'rtasidagi munosabatlar mohiyatini tushunib olmoq uchun avvalo, dunyoviy taraqqiyot yo'li va din bir-biriga qanchalik muvofiq kelishini tarixga qisqacha bir nazar tashlash orqali ko'rib chiqish zarur.

Insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi davomida siyosat va din o'rtasida murakkab, lekin barqaror aloqadorlik vujudga kelgan. Siyosat va din o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning uzoq yillik tarixi siyosatning diniylashuv yoki aksincha, dinning siyosiylashuv davrlari ko'p marta ro'y berganligidan dalolat beradi. Bunday jarayonlar muayyan ma'noda hozirgi zamonda, xususan Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlarda ham ko'zga tashlanmoqda.

Aslida, tarixga murojaat qilinsa, antik zamonlardayoq siyosatchilar Yevropada ommaga ta'sir ko'rsatishning eng faol vositasi sifatida xristianlik aqidalaridan foydalanib cherkovni siyosat quroliga aylantirganliklari ma'lum bo'ladi. Insoniyat sivilizatsiyasining keyingi bosqichi o'rta asrlarda jaxonning ikki yirik dini islom va xristianlik siyosat va siyosatchilarga shu darajada kuchli ta'sir etdiki, natijada bu dinlar G'arbda va Sharqda barcha davlatlar ustidagi „davlat"ga aylandilar. Biroq, Yevropadagi reformatsiya, monarxiya rejimlari siyosiy ehtiyojlarini qondirish borasida cherkov mavqeining asta-sekin so'nib borishi mutlaq siyosiy hokimiyatning mustahkamlanishiga, oxir-oqibatda esa xristian cherkovining siyosatga nisbatan ta'sirining sinishiga olib keldi. Feodal tartiblarga qarshi inqiloblar va undan keyingi siyosiy jarayonlarda diniy aqidalar yakka xukmronligidan uzoqlashgan Yevropa tafakkuri bozor munosabatlari erkinligi, dunyoviy ta'lim va texnik taraqqiyot sari jadal yuzlandi. Jamiyat mutlaq xukmronlik boshqaruvini rad etib, antik demokratiyaning ayrim shakllaridan ijodiy ravishda foydalanishga kirishdi. Yangi davr Yevropasida xokimiyatning cherkovdan uzoqlashuvi individning insoniy qadr-qimmatini xaqidagi masalani kun tartibiga qo'ydi. Bu esa xukmdor suverenitetidan xalq suverenitetiga o'tishni tezlashtirib, turli dunyoviy mafkuralar, jumladan, liberalizm xamda liberal siyosiy tizimlarni yaratdi.

Yevropada to'plangan tajriba, dinni dunyoviy, davlatga oid ishlardan ajratish daxriy davlat va axloqsiz jamiyat qurishga olib keladi, degan da'volarning mutlaqo asossiz va tuturuqsiz ekanligiga zarracha shubxa qoldirmaydi. Mazkur qit'aning dunyoviy, demokratik davlatlari o'z fuqarolariga to'laqonli vijdon erkinligini, birinchi navbatda inson xuquqlarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan e'tiqod erkinligini namunalii tarzda ta'minlagani e'tiroz bildirilmaydigan xayotiy voqelikka aylandi. Ammo, bu jarayonlar Yevropadagi davlat va din munosabatlari tarixiga oid ekanligini nazardan soqit qilmasligimiz kerak.

Sharqda esa IX-XII asrlarda o'z mavqeini yanada mustahkamlashta muvaffaq bo'lgan islom dini siyosatni o'ziga tobe etibgina qolmay, u bilan uyg'unlashib xam ketdiki, bu xol bu yerdagi siyosiy rejimlarni zaiflashtirish u yoqda tursin, aksincha, ularning sezilarli darajada

mustaxkamlanishiga, jamiyatning jipslashuviga, fan va madaniyatning gullab-yashnashiga yordam berdi va shu bilan birga Sharq Uygʻonishining tamal toshi qoʻyilishiga imkon tugʻdirdi. Islom vujudga kelgan davrda din siyosatdan, xuquqdan, falsafadan ajralmagan xolda edi. Ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichida siyosat bilan din oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik davom etaverdi. Baʼzan bu aloqadorlik kuchaydi, baʼzan bir qadar susaydi. Ammo, dinning siyosatga taʼsiri xech qachon batamom yoʻqolmadi. Islom faqatgina din boʻlib qolmasdan, balki yaratuvchilik xarakati, taraqqiyot taʼlimoti, shuningdek, jamiyatni jipslashtirish vositasi boʻlib keldi.

Markaziy Osiyo Uygʻonish davri va undan keyingi zamonlarda jamiyatni boshqarish masalalarida dunyoviylikka moyil siyosiy kuchlarning oʻrni va ahamiyati muntazam mustaxkamlanib borgan xamda diniy doiralar taʼsir faoliyati soxasi sof maʼnaviy-axloqiy tabiatga ega masalalargacha torayib borgan.

Demak, davlat va jamiyat xayotida taraqqiyot talablariga toʻla javob bera olmayotgan islomiy mafkuraga muqobil dunyoviy mafkuraga extiyoj asta-sekinlik bilan shakllana boshlagan. Bunday dunyoviy mafkura sifatida keyinroq jadidchilikning maydonga chiqqani fikrimizni isbotlaydi. Xuddi shu davrda Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan zabt etilishi islomning oʻrni va rolining jiddiy oʻzgarishiga xam olib keldi: istilochilar islomni ijtimoiy-siyosiy xayotdan imkon qadar extiyotkorlik bilan siqib chiqarishga xarakat qildilar. Bunda birinchidan, musulmon ruxoniylarni inkor etib, ularni ijtimoiy xayotdan asta-sekin siqib chiqarish, ikkinchidan ularning moddiy-iqtisodiy zaminini yemirishni koʻzlagan vaqf mulklarini qisqartirishga qaratilgan tadbirlardan iborat usullardan foydalanildi.

Maʼrifat va milliy mustaqillik bayrogʻi ostida XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik mafkurasi esa „ilmiy sotsializm“ tugʻdirgan lenincha fundamentalizm va uning bevosita natijasi boʻlgan Stalin rejimi zugʻumlari ostida oʻz takomiliga yetmagan xolda qolib ketdi. Jamiyat xayotida dinning xar qanday rolini kamaytirishda intilish shoʻrolar davrining dinga nisbatan davlat siyosatidagi asosiy xususiyat boʻlib qoldi. Bu siyosat jangari ateistik usullar ishlatish, ruxoniylar va diniy muassasalarga qarshi keng koʻlamli xujumlar uyushtirish, dinning ijobiy saloxiyatini butunlay inkor etish yoʻli bilan amalga oshirildi. Islomning tarbiyaviy saloxiyatidan foydalanishga daʼvat etgan turkistonlik jadidlarning urinishlari xam rad etildi. Ruxoniylar va diniy muassasalarga tazyiq oʻtkazish uzluksiz oshib bordi: ateistik jamiyat qurish bilan bogʻliq, xomxayol tobora qatilylik bilan xayotiy voqelik sifatida taqdim etila boshlandi. Ammo, tabiiyki, bunday siyosat asrlar osha shakllangan musulmon jamiyati xayotidan dinni tag-tomiri bilan uzib tashlashni taʼminlay olmadi. Shunga qaramasdan ulamolarning mutlaq koʻpchiligi jismonan maxv etildi va musulmon diniy muassasalarining anchagina qismi vayron

etildi. Lekin bundan islom omili jamiyat xayotidan yo'qolib ketmadi, balki uning o'rni o'zgardi, xolos, u nixoyatda o'ziga xos shakl kasb eta boshladi. Jumladan, dinning yashirin faoliyat olib borishga o'tishi bunday siyosatnint maxsuli bo'ldiki, natijada u xokimiyatga qarshi muxolif kuchga aylandi. 1980 yillarning oxirlaridan boshlab, sobiq SSSRning parchalanish jarayoni batamom ravshan bo'lgach radikal kayfiyatdagi ba'zi arboblarning millatning ma'naviy raxnamoligiga oshkora da'vo qilib chiqdilar. Masalan, 1990 yilda Tojikistondagi Islom uyg'onish partiyasi shu mamlakatdagi diniy boshqarma raxbariyati bilan til biriktirib, demokratiya niqobi ostida xokimiyat uchun kurashga otlandi. Natijada respublikada fuqarolar urushi boshlanib, o'n minglab begunox, odamlarnint qoni to'kildi, bir millat ikki qarama-qarshi qismga ajralib ketdi.

O'zbekiston Respublikasida esa davlatning dinga nisbatan oqilona ravishda ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan siyosati bois, qo'shni davlatdagi singari fojialarga yo'l qo'yilmadi. Milliy va diniy totuvlik ta'minlandi. Biz barpo etayotgan dunyoviy, demokratik jamiyat, xuquqiy davlatdagi davlat va din munosabatlari mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ochiq-oydin ifoda etilgan. Respublikamizda din davlatdan rasman ajratilgan. Biroq, dinning davlatdan ajratilganligi uning jamiyatdan ajratilganligini bildirmaydi. Shunday ekan, bu nozik va murakkab masalada munosabatlarning o'zaro xurmat va ishonch asosida qurilishi yagona maqbul yo'ldir. Davlatni idora qilish, jamiyatni boshqarish siyosiy raxbarlarning vazifasi. Diniy raxbarlar esa kishilarni islom qadriyatlarini asosida tarbiyalab, jamiyat oldida turgan vazifalarni amalga oshirishda, xayotiy masalalarni hal etishda xukumat paxbaplariga yordam berishlari, davlat qonunlari va siyosatini xurmat qilishlari lozim. Mamlakatimiz raxbari ta'kidlaganidek, „davlat dindor fuqarolarning diniy e'tiqod va xaq-xuquqlarini qanchalik xurmat-extirom qilsa, dindorlar xam davlat qonunlari va siyosatini shunchalik xurmat-extirom qilishlari shart". Shundagina jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy xayoti mutanosib rivojlanadi.

Xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan borayotgan davlatimizning dinga bo'lgan munosabati nimalar bilan belgilanadi, degan savolga javob berishdan avval „dunyoviylik" degan tushunchaning o'zi nimani anglatishini aniqlashtirish lozim.

Dunyoviylik diniy e'tiqodning ijtimoiy-madaniy xayot va qolaversa, umummilliy taraqqiyotdagi ahamiyatini inkor etadimi? Agar inkor etmasa, dinning xayotiy voqelikdagi rolini u qanday tushunadi? Ana shu savollarga oydinlik kiritsakkina mustaqil O'zbekistonda dunyoviy jamiyat qurish yo'lida amalga oshirilayotgan sa'y-xarakatlarning, shuningdek siyosat, din va mafkura o'rtasidagi aloqaning, munosabatlarning tub mohiyati ravshanlashadi. Mantiqiy xulosa shuki, dunyoviylik tushunchasi plyuralizm, ya'ni xurfiylikka asoslanadi. Dunyoviy taraqqiyot

yo‘lidan borayotgan mamlakatlardagi dinga bo‘lgan munosabat demokratik plyuralizm, ya’ni xurfiylik tamoyiliga asoslangani tufayli ularda din xayotdagi ijtimoiy-madaniy va ma’naviy-ruxiy muxit rang-barangligini ta’minlovchi xilma-xil tarixiy qadriyatlar silsilasidagi teng xuquqli bo‘g‘in sifatida qabul qilingan.

Dunyoning ko‘pchilik davlatlari, xususan, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, din dunyoviy davlat tuzumi bilan nafaqat murosa qilishi, balki umummilliy yuksalish yo‘lida u bilan samarali xamkorlik qilishi mumkin.

Dinning jamiyatimizdagi o‘rni eng avvalo, uning konstitutsiyaviy maqomi bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq barcha fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlangan. Diniy tashqilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan va ularning qonun oldida tengligi belgilab qo‘yilgan. Ayni paytda milliy va diniy ruxdagi siyosiy partiya va jamoat birlashmalarining tuzilishi xamda faoliyati taqiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasida davlatning din bilan munosabatlari mazmun-moxiyatini belgilovchi qator tamoyillarga quyidagilar kiradi:

- dindorlarning diniy tuyg‘ularini xurmat qilish;
- diniy e’tiqodni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning xam, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning xam xuquqlarini teng kafolatlash xamda ularni ta’qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik;
- ma’naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo‘llarini izlash zaruriyati;
- dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmashligini e’tirof etish.

Xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishni ko‘zlagan davlatimizning dinga munosabatini belgilovchi yuqoridagi mezon va tamoyillardan ikki asosiy xulosani chiqarish mumkin.

Birinchidan, O‘zbekistonda din madaniy-mafkuraviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi barcha milliy qadriyatlar qatorida teng xuquqli qadriyat sifatida tan olinadi.

Ikkinchidan, sof diniy extiyojlarni qondirishdan tashqari xar qanday g‘arazli maqsadga erishish yo‘lida diniy omillardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurashnint asosiy yo‘nalishi islom diniga emas, balki islomning muqaddas aqidalarini niqob qilib olgan diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi qaratilishi lozim. Biroq, ayrim xorijiy mamlakatlar matbuotidagi maqolalarda islom dini,

siyosiy islom, terrorizm va diniy ekstremizm bir biri bilan qorishtirib yuborilmoqda. Xatto ayrim davlat arboblari terrorizm bilan bevosita bog'liq bo'lgan siyosiy islomga xam beixtiyor islom dinining tarkibiy qismi, deb qarashmoqda. Vaxolanki, terrorizm va islom ekstremizmi islom dini bilan faqat konfessional jixatdan bog'liqdir.

Xullas, umume'tirof etilgan demokratiya va plyuralizm tamoyillariga asoslangan davlat va din o'rtasidagi yangicha munosabatlarni fuqarolarimiz ongiga singdirib borish, xar qanday diniy-ekstremistik xarakatlarning oldini olish oldimizda turgan eng muxim vazifalardan biridir.

Siyosiy mafkura siyosatshunoslikning eng murakkab kategoriyalaridan biridir. Chunki jamiyatni boshqarish zarurati muayyan g'oyaviy dasturni va nazariyani taqozo etadi. Bu vazifani mafkura bajaradi. Mafkurasiz siyosiy xokimiyat bo'lmaganligi kabi davlat va uning siyosiy institutlarisiz mafkura xam bo'lmaydi. Shu bois mafkura ijtimoiy xayotni tashkillashtiruvchi, boshqaruvchi va muayyan maqsad sari yo'naltiruvchi dastur, ta'limot bo'lib xizmat qiladi. Mafkura asos e'tiboriga ko'ra siyosat bilan uzviy bog'liqdir. Siyosatning o'zgarishi mafkuraga xam ta'sir ko'rsatadi.

Aslida mafkura siyosatga oqilona yo'nalish berishi, uni jamiyat xayotining turli jabxalaridagi real xolat bilan tanishtirishi lozim. Siyosatning mafkuraga tayanishining sababi mafkuraning jamiyat ma'naviy kayfiyatini, orzu-umidlarini, maqsad va manfaatlarini ifodalovchi g'oyaviy dastur ekanligidadir. Bu borada siyosiy mafkura aloxida o'rin tutadi. Chunki u xuquqiy mafkura kabi demokratik, xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda yetakchi omillardan biri xisoblanadi. Siyosiy mafkurasiz biror-bir siyosiy xarakat bo'lmaydi. Siyosiy mafkura o'z tarkibiga ko'ra mavjud ijtimoiy voqelik, uning kelajagi to'g'risidagi siyosiy tasavvur va tushunchalardan tashkil topadi. Siyosiy mafkurada mavjud ijtimoiy voqelikning kelajagi xaqidagi fikr-muloxazalar muayyan dastur qiyofasiga kiradi. Shuning uchun siyosiy mafkura siyosiy amaliyot uchun dasturiy axamiyat kasb etadi.

Siyosiy mafkuraning jamiyat taraqqiyoti uchun axamiyati shundan iboratki, u kishilarning xis-tuyg'ulariga, kayfiyatlariga ma'naviy, g'oyaviy jixatdan ta'sir qiladi, ularni g'oyaviy jixatdan qurollantiradi va real xatti-xarakatga undaydi. Ya'ni, siyosiy mafkura ijtimoiy voqelikni taraqqiy ettirishga yordam beradi. Siyosiy mafkuraning ijtimoiy voqelikni o'zgartirishga qaratilishining sababi shuki u jamiyatdagi ijtimoiy gurux va tabaqalarning extiyoj xamda manfaatleri bilan bog'langandir. Shu bois siyosiy mafkura mavjud voqelikni emas, balki ko'proq bo'lishi lozim bo'lgan ijtimoiy voqelikni yaratishda bo'ysundirilgan bo'ladi. Chunki ijtimoiy voqelikda, siyosiy jarayonlarda doimo manfaatlar va extiyojlar kurashi ro'y beradi. Siyosiy mafkura u yoki bu ijtimoiy gurux, sinf, tabaqaning g'oyaviy dasturi, siyosiy ideali

xisoblanadi. Ular o'z mafkuralarini yoki siyosiy dasturlarini jamiyatning boshqa tabaqalari ongiga singdirishga va yetakchi mafkura darajasiga ko'tarishga xarakat qiladilar. Dunyoda turli tuman mafkuralarning shakllanganligini shu omil bilan izoxlash mumkin.

Mafkura jamiyatning ilgarilanma taraqqiyotida g'oyaviy vazifasini bajaradi. Aynan kishilar o'zlari uchun qaysi mafkura ma'qul ekanligini tanlashadi. Demokratik jamiyatdagina mavjud bo'ladigan bunday tanlovda turli siyosiy guruxlar, qatlamlar, uyushmalar va tabaqalar ishtirok etadilar. Siyosiy mafkura u yoki bu ijtimoiy guruxning manfaatlarini ifodalovchi va ximoya qiluvchi xamda ko'proq miqdordagi kishilarning individual o'y-fikrlari va xatti-xarakatlarini xokimiyatdan foydalanishning muayyan maqsadlari va vazifalariga bo'ysundirishni talab qiluvchi tizimlashgan (sistemalashgan) g'oyalar, qarashlarning yig'indisidir.

Hozirgi zamon mafkuralari qatorida milliy mafkuralar xam muxim o'rinni egallaydi. Ular boshqa mafkuralardan farq qiluvchi bir qator xususiyatlarga ega. Milliy mafkuralar dunyo mustamlakachilik sistemasining yemirilishi, yosh mustaqil milliy davlatlarning tashkil topish zaruriyati bilan bog'liq.

Milliy mafkuralar faqat ayrim ijtimoiy, irqiy, etnik guruxning, xalqning manfaatinigina emas, balki mustaqillik uchun, milliy xayotni rivojlantirish uchun kurash olib borayotgan xalqlarning dunyoda tutgan o'rini, turmush tarzini, orzu-umidlarini, intilish va manfaatlarini aks ettiradi.

Milliy mafkuralar u yoki bu xalqlar qaramligining ob'ektiv negizlarini, ularni bartaraf etish va xaqiqiy mustaqillikka erishish yo'llarini ochib beradi.

Milliy mafkuralar yosh, mustaqil davlatlar xalqlarining o'zligini anglashiga, qaramlik doirasidan chiqishiga, ularning chinakamiga erkin bo'lishiga, jaxon xamjamiyatida o'zining munosib o'rini topishiga yordam beradi.

1991 yilda sovet imperiyasi parchalangach o'z-o'zidan uning mafkurasi xam yo'qoldi. Natijada ijtimoiy xayotda bo'shliq xosil bo'ldi. Bu bo'shliqqa bir vaqtning o'zida dunyoviy, mustaqil, demokratik davlatni barpo etishga kirishgan milliy mafkuramiz bilan birga O'zbekistonni o'zi tanlagan yo'ldan toydirmoqchi bo'lgan, diniy davlat qurish istagidagi siyosiy kuchlarning mafkurasi xam kirib kela boshladi. Jumladan, vaxxobiylik, xizb ut-taxrir, akromiylik kabi diniy-ekstremistik kuchlar siyosiy mafkurasidagi asosiy xususiyat mavjud xokimiyat kamchiliklariga nisbatan ayrim ijtimoiy qatlamlar ruxiyatida salbiy xis-tuyg'u uyg'otib, uni e'tiqod darajasiga ko'tarishga asosiy e'tibor qaratilishida ko'zga tashlandi.

Bundan shunday xulosa chiqadiki, biror-bir davlat mafkurasiz bexavotir rivojlana olmas ekan. Shuning uchun xam mustaqil taraqqiyot sari odimlayotgan O'zbekiston Respublikasida mafkura masalasiga yangicha yondashish muammosi vujudga keldi. Mustabid

sovet tuzumining inqirozga yuz tutishi jamiyatning barcha soxalarini tubdan islox qilish va yangi jamiyat qurish masalalarini ishlab chiqishni taqozo qildi. Bu masalalar I. A. Karimovning „O‘zbekistonning o‘z istiqbol va taraqqiyot yo‘li“, „O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari“, „Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q“ kabi ko‘plab asarlarida asoslab berilgan konsepsiyada o‘z yechimini topdi. Ayni paytda bu konsepsiya milliy istiqbol g‘oyasini yaratishga katta xissa bo‘lib qo‘shildi, uni yangi, fundamental-nazariy qoidalar, xulosalar bilan boyitdi.

O‘zbekiston Respublikasida milliy mafkuraning ijtimoiy-siyosiy xayotga tatbiq etilishida quyidagi uch bosqich e‘tiborga molik.

Birinchi bosqich Prezident I. A. Karimov belgilab bergan besh tamoyil va uning talqini bilan bog‘liq. Lekin isloxotlar jarayonida ilgari surilgan „iqtisodiy isloxotlar xech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo‘ysundirilishi mumkin emas“ degan tamoyil sovet mafkurasidan bezgan, umuman „mafkura“ so‘zidan xadiksirab qolgan fuqarolar tafakkurida mafkurani xayotimizdan umuman chiqarib yuborish lozim, degan noto‘g‘ri xulosalarni xam shakllantirdi. Bu bosqich taxminan 1991-1993 yillarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-siyosiy isloxotlar," ayniqsa yangi siyosiy tizimni yaratish, demokratik institutlarni shakllantirish muammolari mafkuraga, xususan, milliy mafkuraga e‘tibor berishni taqozo eta boshladi. Natijada mafkura muammosini yangicha talqin etishda yangi bosqich boshlandi. Ya‘ni ikkinchi bosqich 1993-1999 yillarni o‘z ichiga oladi. Bu yillarda mafkura xar qanday davlat siyosatining, jamiyat xayotining ajralmas qismi, g‘oyaviy tayanchi ekanligi to‘g‘risidagi fikr-muloxazalar mamlakatimiz ziyolilari tomonidan turli OAV orqali jamoatchilik e‘tiboriga xavola qilindi.

Uchinchi bosqich Prezident I. A. Karimovning 2000 yil 6 aprelda mamlakatimiz ziyolilari bilan Oqsaroy qarorgoxida o‘tkazgan uchrashuvdan boshlandi desak, xato bo‘lmas. Chunki bu uchrashuvda milliy mafkuraning negizi milliy g‘oya muammosi o‘rtaga tashlandi. Milliy g‘oya milliy mafkuraning umumlashgan ifodasi sifatida vatanparvarlik, milliy g‘yyp va milliy sha‘n kabi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi.

Milliy mafkura o‘z moxiyatiga ko‘ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o‘tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog‘laydigan, asriy orzu-istaklarni amalga oshirishga xizmat qiladigan g‘oyalar tizimidir. Ushbu mafkura O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi.

Milliy mafkuramiz O‘zbekiston davlati, millati uzoq ming yillik tarixga ega ekanligini, uning jaxon sivilizatsiyasiga qo‘shgan buyuk xissasini, o‘tmishini aniq manbalar asosida ifodalovchi xamda xalqimizning bugungi kundagi asosiy vazifasi erkinlik, mustaqillik,

ozodlikning qadriga yetish, xar bir shaxsning o'z mexnati, bilimi, aql-idroki, kerak bo'lsa jon-u tani bilan mustaqillikni mustaxkamlash, avaylab-asrash va Vatanimizning rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi xamda kelajak avlodga ozod va obod Vatan qoldirish barchamizning maqsadimiz ekanligini ko'rsatuvchi ta'limotdir. Shuning uchun barchamiz milliy mafkuraning mazmun-moxiyatini bilishimiz lozim, zero milliy mafkura xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo'lga boshlovchi bir bayroqdir.

Milliy mafkura xaqida gapirganda shuni nazarda tutish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi plyuralizm, fikr va qarashlar erkinligi tamoyillarini to'liq ta'minlaydi. Asosiy qonunimizning 12-moddasida bu qoida quyidagicha ifodalangan: „O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy xayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fiqrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Xech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas". Ya'ni, mamlakatimizda mafkuraviy yakkaxokimlikka yo'l qo'yilmaydi. Chunki mafkuraviy plyuralizm xaqiqiy demokratik davlat shakllanishining debochasidir.

Bu qoida faoliyat ko'rsatayotgan partiyalar, xarakat va ijtimoiy-siyosiy guruxlardan birortasining dasturiy royolari yagona davlat mafkurasi bo'la olmasligini anglatadi.

Milliy mafkura turli siyosiy partiya va ijtimoiy guruxlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen-ijtimoiy xodisadir. Bu mafkurada biron bir dunyoqarash mutlaqlashtirilmaydi yoki u mavjud siyosiy xokimiyatni mustaxkamlash maqsadida siyosiy qurolga aylantirilmaydi². Milliy mafkura o'z mazmun-moxiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, gurux va qatlamlarning - butun xalqimizning manfaatlarini ifodalaydi.

Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustaxkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muxabbat, istiqolga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb axamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 2006 yil 25 avgustda qabul qilgan qarori e'tiborga molikdir. Chunki xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va taxlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizni turli xil mafkuraviy xurujlardan ximoya qilish, yurtdoshlarimizning xayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofdagi yuz berayotgan voqealarga daxldorlik xissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyishta xayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi ushbu soxadagi ishlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi.

Ushbu qarorga ko'ra Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashida „Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi" tashkil etildi. Markazning asosiy vazifalari sifatida:

milliy g'oya va mafkura masalasi bilan bog'liq dolzarb muammolarni, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jixatdan atroficha taxlil qilish va baxolash, ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, ularning axoli turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, xayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning moxiyatini ochib berish;

xalqimizning ko'p asrlik ma'naviyati va milliy qadriyatlari, diniy qarashlari va xayotiy udumlariga, yoshlarimizning ongini zaxarlab, ma'naviy jixatdan qaram etishga qaratilgan mafkuraviy xatarlarga qarshi samarali kurash olib borish bo'yicha ilmiy-amaliy dasturlarni ishlab chiqish kabi bir qator masalalar belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davlatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarni tub mohiyatini ichib berish va uni aholimizning qlabi va ongiga singdirishda milliy g'oya va milliy mafkuraning o'rni beqiyosdir. Ular turli ijtimoiy guruxlarning manfaatlarini ifoda etadi va jamiyatimizni taraqqiy ettirishning turli-tuman yo'llarini ilgari suradi.

XULOSA

Istiqlolni mustahkamlashning muhum shartlaridan biri Bu g'oyaviy tarbiyani kuchaytirishdan iboratdir buning uchun esa avvalo tashqi va ichki tahdidlardan boxabar bo'lmog'imiz darkor. Ichki tahdidlar o'z Vataniga, vatandoshlariga zarar yetkazishga qaratilgan g'oya fikr hatti-xarakatlar majmuasidir.

Nosog'lom maxalliychilik yurtdoshlar xaqiga xiyonat qilish, odamlarni boy kambag'alga bo'lib muomila qilish, poraxo'rlik, korrupsiya, ortiqcha mol dunyoga xirs qo'yish, befarqlik, loqaydlik, o'zligini anglamaslik va boshqa ilatlar milliy xavfsizlikni bilvosita ichki tahdidlardir. Ular qancha keng tarqalsa, yurtdoshlar g'oyaviy birligiga shuncha ko'p zarar yetkazadi, parokanda qiladi, hamjixatlaka putr yetkazadi.

Bu borada yurtboshimizning “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarida quydagi fikrlar xam buning tasdig’idir:

“Azaldan ma’lumki, beparvo odam, dushmandan ham xafiroqdir. Chunki dushmaning kimligi asl qiyofasi siz uchun oldindan ma’lum bo’ladi. Biroq loqayd va beparvo odamning qiyofasini birdaniga bilib bo’lmaydi. Shuning uchun u ichingizda yurib sizga qarshi tish qayraydigan dushmanlar uchun imkoniyat yaratib beradi. Mashxur faylasuflardan biri ana shu hayotiy xaqiqatni chuqur tahlil etib, quydagi haqoniy fikrlarni bayon qilgan:

“ Dushmanlardan qo’rqma - nari borsa ular seni o’ldirishlari mumkun. Do’stlardan qo’rqma – nari borsa, ular senga xiyonat qilishlari mumkin, befarq odamlardan qo’rq - ular seni o’ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo’laveradi”²³

Bugungi dunyoni anglashimiz hayot va jamiyat qonunlarini har tomonlama idrok etishimiz, yer yuzidagi turli etnoslar dunyoqarashi, g’oyasi maslak - mudolaridan xam boxabar bo’lmog’imiz darkor. Chunki xar qanday jamiyat, davlat, etnos, birinchi galda o’z manfaatlarini ko’zlagan xolda xarakat qiladi, faoliyat yuritadi bazilarining xatti - xarakatlari, g’oyalari bizning milliy manfaatlarimizga mos kelmasligi xam mumkin xech bir xalq dunyoda yakka yashamaydi, yolg’izlikda rivojlanmaydi ham. Etnoslar doimo o’zaro turlicha munosabatda bo’ladilar va tarix dovomida bir - birlariga ta’sir o’tkazib, o’zlarini ham o’zgalarni ham ma’naviy boyitib boradilar. Amma xech-qachon, xech bir xalq o’zligidan butkil kechib, boshqa xalq ma’naviyati xisobidan o’zini boyita olgan emas. Yakka bir shaxs butkil o’zga bir ma’naviy muhitda tarbiya topib, unga to’liq moslashishi mumkun. Bu inson tabiyatiga xos narsa. Ammo bir xalq to’lig’icha o’zligidan kechib, o’zga halq ma’naviy dunyosini qabul qilsa, demak unday xalq yo’q bo’ladi. O’z ma’naviy qiyofasini yo’qotgan millat yo’qolgan millatdir. Shu sababli milliy xavfsizlikni ma’naviy mustaqilik tashkil etadi, deymiz. Milliy ma’naviyatning takomili esa o’sha millatga mansub xar bir shaxsning ma’naviy kamolati bilan bevosita bog’liq va ushbu zaminga tayanib yuksaladi

Milliy g’oya va milliy mafkura xar bir millat ma’naviyatida o’ziga xos va maxsus tizim shaklida namayon bo’ladi. Xar bir xalq mohiyatan umuminsoniy bo’lgan qadiryatlarni tamomila o’ziga xos shaklu shamoilda ifoda etishning siri shunda.

Ma’naviyatimizdagi eng umuminsoniy g’oyalar nihoyatda milliy tarzda o’zligini namoyon etadi, ular o’zga millat ma’naviyati usulari unsurlaridan nusxa ko’chirish shaklida namoyon bo’lmaydi. Shu boisdan ham yoshlarni milliy ma’naviyat, falsafiy

²³ Каримов И.А. юксак маънавият- енгилмас куч.-Т.: “Маънавият”, 2008, 124 б.

tafakkur bilan qurollantirish davr talabiga aylanib bormoqda. Hozirgi davrda milliy xavfsizlikka tashqi taxlit manbai bo'lmish xar qanday raqib va muholif bilan bahsga kirishishi uchun uning qarashlari va g'oyasi, falsafasini ko'proq bilishimiz kerak bo'lsa, uning o'zidan ham puhtarok egallashimiz lozim. Muayyan kuchlarga, guruhlariga, vayronkor g'oyaga qarshi turmoq uchun maqsadini, mohiyatini, eng muhimi, uning paydo bo'lish sabablarini bilmog'imiz darkor. terorizim - siyosiy ekstrimizimning beshavqat kuch ishlatish yo'lini tanlagan ko'rinishlardan biri ekanligi: u umumiy ahloqni rad etuvchi nihilizm oqibatida yuzaga kelishi va yana boshqa qator ilmiy talqinlar mavjud.

Inson ma'naviyatiga tahdidlar va ulardan o'zini ongli himoya qilish ko'nikmalari ta'lim - tarbiya, bobo-momolar o'giti, ota-onalar ibрати, ezgulik va yovuzlikni ajrata bilish jarayonida shakillanib boradi.

Hozirgi paytda insoniyat hayotiga katta xavf tug'dirayotgan xalqaro terorizim, diniy ekstremizm narkoagressiya va SPID singari ofatlarni ko'pchilik yaxshi biladi. Lekin bugungi kunda hama ham bilavermaydigan, oshkora ko'zga tashlanmaydigan, ma'naviy xayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar ham borki, xoziroq ularning oldini olmaslik keyin kech bo'ladi. Bular g'arb olamida keng tarqalgan egatsentirizim va erkinlik niqobidagi axloqsizlik falsafasidir.

Umuman olganda bizga tahdid solayotgan yot vayronkor g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakillantirish vazifasi bugungi kunda g'oyat dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shaxs, ijtimoiy gurux millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy tasirlardan himoyalashga xizmat qiluvchi tizim mafkuraviy immunitet xisoblanadi. Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birligi elementi - bu bilimdir. Ammo bilimlarning ham turi ko'p. Masalan, irqchilik, kamunizm fashizm, terorizm mafkurasi tarafdorlari ham muayyan "bilim"larga asoslanidilar. Shunday ekan mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob'ektiv bo'lishi voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatini boyishi, xalq va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim.

Jamiyatga yot, begona g'oyalar birdaniga kira olmaydi. Ular, avvalo, millat azaldan ishonib kelgan meros, qadiryatlarga ishonch, umidni so'ndirishga urinadilar. Buning uchun milliy qadiryatlar yomonlanib, obro'sizlantiriladi. Natijada mafkuraviy immunitetni sindirishning birinchi bosqichi amalga oshadi - millat ajdodlari, o'zi ishonib kelgan g'oyalar, qadiryatlarga befarq munosabatda bo'la boshlaydi. Azaliy qadiryatlarga amal qilmay qo'yadi, odamlarda bundaylarga nisbatan loqayd munosabat shakillanadi, zamonaviylik niqobini kiyib olgan bunday kimsalar hatto maqullanadi ham. Qadrsizlangan g'oyalar esa ahamiyatsiz narsalarga aylanib qoladi. G'oyaviy g'animlar bo'shliqni shu usubda yaratib ochib oladilar. G'oyaviy bo'shliq ochib olingach, endi uning o'rnini o'z g'oyasi bilan to'ldirish niyatida

begona qadiryatlar jozibali qilib tasvirlanadi. Buzg'unchi g'oyaga xos "yangilik" va u berayotgan va'dalar odamlar qulog'i va ko'zi orqali ong va qalbga kira boshlaydi.

Agar insonning qalbi va ongi zaxarlansa, keyin uni avvalgi sog'lom holatiga qaytarish oson bo'lmaydi. Shu sababdan ham jamiyat, undagi toifalar va qatlamlar ongida sodir bo'ladigan g'oyasizlik, vakkuum holati ya'ni g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymasligi darkor.

Milliy g'oya, milliy mafkura sohasidagi faoliyatimizni yanada kuchaytirish va eng asosiysi g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymasligimiz, ma'naviy hayotni butun xalq va har bir fuqaro manfaatiga mos keladigan yuksak va jozibali g'oyalar bilan boyitishimiz darkori. Bu o'z navbatida fuqarolarda ertangi kunga ishonch va kelajakka umid hissini yanada mustahkamlaydi.

Shu boisdan ham butun g'oyaviy tarbiya tizimini qamrab olgan g'oyaviy-tarbiyaviy, ma'naviy-mafkuraviy ishlar majmui mafkuraviy profilaktika doimiy -e'tiborni talab qiladi. Mafkuraviy profilaktika g'oyaviy bo'shliqni tugatish, mafkuraviy parokandalikning oldini olish yoki biror-bir hudud, qatlam, guruhni yot va zararli g'oyalar ta'siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda g'oyaviy ta'sirning xilma-xil usul va yo'llaridan foydalanish, turli vositalarni qo'llash lozim bo'ladi.

Mafkuraviy profilaktika tezkor va qisqa sur'atlarda yoki asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin. Birinchi holatda zudlik bilan chora-tadbirlar qo'llash zarur bo'lsa, ikkinchi holda doimiy va sobitqadamlik bilan faoliyat ko'rsatish ijobiy natijalarga olib keladi.

Bugungi kunda butun dunyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada yurtboshimiz BMT minbaridan Markaziy Osiyo hamda Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, Markaziy Osiyoda yadroviy quroldan xoli xududni tashkil etish tashabbusini ham ilgari surganlar.

Bugungi kunga kelib tinchlik va xavfsizlik borasida dunyoning ko'plab davlati yadro qurolidan xoli bu dunyo siysiy xaritasining 70% ni tashkil etadi demak tinchlik va barqarorlik bugun xar bir inson xar bir davlatning eng birinchi maqsadidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Raxbariy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Buyuk maqsad yo‘lidan og‘ishmaylik. O‘zbekiston: Milliy istiqlo, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T.: “O‘zbekiston”, 1996
2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin.
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz 7-jild. T.: “O‘zbekiston”, 1999
4. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O‘zbekiston, 1997.
5. Karimov I. A. O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qurmoqdamiz. 7-jild. T.: O‘zbekiston: 1999.
6. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-jild.-T.: “O‘zbekiston”, 1999
7. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda Tashkent. 1999
8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz.8-jild. – T.:O‘zbekiston, 2000.
9. Karimov I.A. Milliy istiqlo, mafkurasi – xalq e‘tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T.: “O‘zbekiston”, 2000.
10. Karimov I.A. Sog‘lom avlod tarbiyasi — barchamizning muqaddas insoniy burchimiz. 8-jild. —T.: «Uzbekistan», 2000.
11. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat-engilmas kuch. –T.: “Ma‘naviyat”, 2008
12. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O‘zbekiston, 2010
13. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2011.

UMUMIY ADABIYOTLAR

1. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud ahloq. Toshkent, «O‘zbekiston», 1992
2. U. Mahkamov. Axloq-odob saboqlari. T. , «Fan», 1994
3. Barkamol avlod orzusi. T. , «Sharq» nashriyot matbaa konserni Bosh tahririyati. T. , 1999
4. Abdullajon Begmatov. Ma‘naviyat falsafasi -T.: 2000
5. Milliy istiqlo, g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.: “O‘zbekiston”, 2000.

6. Barkamol avlod orzusi. T. , «Sharq» nashriyoti matbaa konserni. 1999.
7. Komiljon Nosirov. Ajdodlar sabog'i. Jamiyat va boshqaruv 1999.
8. M. Xolmatova. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. T. , «O'zbekiston», 2000.
9. Milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz ongiga singdirish, omillari va vositalari. T., Ijod dunyosi nashriyot uyi. 2002.
10. Boboev X. va boshqalar. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot. -T.:Yangi asr avlodi, 2001.
11. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy maqsad va vazifalari. -T.:«Ijod dunyosi» nashriyot uyi, 2002.
12. G'oya va mafkura. –T. , 2002.
13. Erkin Yusupov, O'tkir Yusupov. Oila – ma'naviyat bulog'i. Toshkent, 2003.